

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Tasavvufiy adabiyot va uning vakillari ijodiyotiga bo'lgan munosabat

O'zbek filologiyasi fakulteti

4-kurs talabasi

Axmedova Shaxlo Istamovna

Ilmiy rahbar:

f.f.n. D.Rajabova

NAVOIY 2014

MUNDARIJA

KIRISH..... 3-7

I BOB MILLIY ISTIQLOL DAVRIDA IJOD ERKINLIGI

MUSTAQILLIK DAVRIDA TASAVVUFONA

I.1. ADABIYOTNING

O'RGANILISHI.....8-18

**I.2. TASAVVUF ADABIYOTI VAKILLARI VA ULARNING
IJODIYOTIGA BO'LGAN MUNOSABAT.....19-31**

**II BOB. AHMAD YASSAVIY-TASAVVUF ADABIYOTI
VAKILI**

**II.1. AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA KOMIL INSON
MASALASI.....32-40**

**II.2. YASSAVIY HIKMATLARI VA ULARNING
TARBIYAVIY
AHAMIYATI.....41-44**

XULOSA.....45-48

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... 49-50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilanyurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab, bir qancha o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bunda xalqimizning asriy ma'naviy qadriyatlarini tiklash, uzoq va yaqin tarixdagi madaniy-adabiy merosni mustaqillik mafkurasi asosida xolis o'rganishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir"¹.

Mumtoz adabiyotimizda ma'lum bir davr ichida nazardan chetda qolgan diniy tasavvufiy adabiyotni va ularda ilgari surilgan mavzular ko'lamini keng qamrovda o'ranish imkoniyatiga erishdik.

Nafaqat ularni o'qib o'ranish, balki ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish darajasiga yetdik. Bu bevosita mustaqillik sharofati, mustaqillik mevasi hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati bilan biz keng kitobxonlar nazaridan chetda bo'lib kelgan So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy, Huvaydo, Haziniy, Xilvatiy, Muhyi singari shoirlarning ijodi bilan bir qatorda Ahmad Yassaviyning ham diniy ruhdagi merosini nashr etish, qayta o'rganish kabi xayrli ishlarni amalga oshirishga erishdik.

Mumtoz adabiyotimizda tasavvuf adabiyotining rivojigakatta hissa qo'shgan, uni an'ana darajasida yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan, madaniyatimiz, tariximizda chuqur iz qoldirgan ijodkorlardan biri Ahmad

¹Karimov. I.A. Asarlar. O'zbekiston: milliyistiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent, 1996. T.1. 39-bet.

Yassaviydir. Shoir hikmatlarida o‘ziga xos g‘oyalarning ilgari surilishi bilan zamondoshlari ijodidan farq qiladi.

Yassaviy hikmatlarining asosini Qur’oni karim oyatlari hamda Muhammad (s.a.v) hadislarining mazmuni tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi Yassaviy hikmatlarida hadislarining o‘rni va ahamiyati, shoir qarashlarining ilgari surilishida hadislarining ahamiyati singarilarni ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi, shoir ijodidagi tasavvuf adabiyoti namunalariva adabiy merosini o‘rganish o‘ziga xos jarayondirki, uning ildizlari olis davrlarga borib tutashadi. Yassaviy ijodiyotiga yaqinlashish, keng omma nigohini unga qaratish ehtiyoji 60-yillarning oxirida O‘zbekistonda paydo bo‘ldi.

Mustaqillik arafasida ma’naviy hayotimizda katta o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Ana shu o‘zgarishlar natijasida atoqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul tomonidan 1990-yilda shoirning hikmatlari nashrga tayyorlandi¹

Mustaqillikdan keyin Yassaviy shaxsiyati va ijodiyotiga qiziqish o‘z-o‘zidan kuchaydi. Natijada 1993-yil Xalqaro “Ahmad Yassaviy yili” deb e’lon qilindi. Bu hol nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa turkiy davlatlarda, xususan, Turkiyada ham bu buyuk mutasavvufning hayoti, adabiy-ma’rifiy faoliyati, shuningdek, uning izdoshlari xizmatiga qiziqishni kuchaytirib yubordi. Xuddi shu yili O‘zbekiston va Turkiyada Yassaviyga bag‘ishlab ilmiy anjumanlar o‘tkazildi, ma’ruzalar matni alohida kitob holida nashr etildi².

Turkiyada Ahmad Yassaviy fondi tuzilib, “Yassaviy” jurnali chiqarila boshlandi. Matbuotda Yassaviyning shaxsiyati, tariqati va she’riyatidan bahs yurituvchi o‘nlab maqolalar bosilib chiqdi. O‘zbekiston Yozuvchilar

¹Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1990.

²Xoja Ahmad Yassaviy: hayoti, ijodivaan’analari. Toshkent, 2001.

uyushmasi tomonidan Ahmad Yassaviy nomidagi maxsus mukofot ta'asis etildi. "Sulton ul-orifin" kamolotining yuksaklarga ko'tarilishiga guvoh bo'lgan va jasad dafn etilgan ko'hna Yassi shahrida esa Ahmad Yassaviy nomidagi universitet mavjud.

Yassaviy hikmatlarida inson va ijtimoiy hayot masalasini o'rganish, inson va ijtimoiy hayotga daxldor bo'lgan qarashlar ask etgan hikmatlarni tahlil qilish hali adabiyotshunoslikda yetarli darajada o'rganilmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Yassaviy ijodida inson va ijtimoiy hayot masalasini o'rganish, inson va ijtimoiy hayotga daxldor bo'lgan qarashlar aks etgan. Ahmad Yassaviy ijodidagi diniy-tasavvufiy adabiyot namunalarini, hikmatlarini tahlil qilish, ularning shoir badiiy niyatini ifoda etishdagi o'rni va rolini belgilashdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga erishdik:

- tasavvuf adabiyoti va bu adabiyotga mansub manbalarning mazmun – mohiyatini o'rganish;
- mustaqillik davrida diniy-tasavvufiy adabiyotga bo'lgan munosabat;
- tasavvuf adabiyoti va uning vakillari ijodiyotiga bo'lgan munosabatni davr nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- Yassaviy hikmatlarida komil inson masalasi talqini, hikmatlarni alohida tahlil qilish;
- Yassaviy an'analari va uning ahamiyatini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Istiqlol davri tasavvuf adabiyotiga bo'lgan munosabat. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ijtimoiy hayotga doir tushunchalar va qarashlarning ham o'ziga xos o'rni va vazifasi bor. Ammo bu sohada maxsus bir bitiruv malakaviy ishi amalga oshirilmagan. Ana shu jihat ishning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, davrning turli notekisliklari, ijtimoiy hayotdagi turli tabaqa vakillari

xususidagi fikrlarini o‘rganish Yassaviy shaxsiyati va ijodining turli tamoyillarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday qarashlarning shoir hikmatlarida tutgan o‘rnini belgilamasdan turib, uning g‘oyalar olamiga kirib borish mushkul. Ana shu jihat ham ishning ilmiy yangiligini belgilaydigan omillardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishida shoirning qarashlari, g‘oyalarining aks etishida ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlari tahlil qilingan, shoirning voqelikka munosabati hikmatlar orqali ifodalanishi ilmiy dalillangan.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ushbu Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda Ahmad Yassaviyning 1990-yilda nashr qilingan “Hikmatlar” asari tadqiqot manbai sifatida olindi. Shuningdek, ba’zi o‘rinlarda qiyos uchun shoirning boshqa yillarda nashr qilingan hikmatlariga ham murojaat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va ilmiy metodi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga oid asarlari hamda o‘zbek adabiyotshunoslarining fundamental tadqiqotlari bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Bitiruv malakaviy ishida qo‘yilgan masalalarni yoritishda Saidbek Hasanov, Ergash Rustamov, Ibrohim Haqqulov, Hamidulla Karomatov, Nodirxon Hasanovlarning mumtoz adabiyotni tadqiq etish, Ahmad Yassaviy hikmatlari haqidagi ilmiy fikr va xulosalariga tayandik.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining natijalari mumtoz adabiyot namunlari tarkibida yashirin qolib kelayotgan g‘oyaviy-badiiy sir va haqiqatlarni yanada yorqinroq ochish, Yassaviy hikmatlariga daxldor ma’no-mohiyatni to‘g‘ri anglashga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishining materiali oliy o‘quv yurtlari, umumta’lim maktablari, kollej va akademik litseylarda o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha kurs ishlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari, seminar mashg‘ulotlari yozishda yaxshi samara beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. MILLIY ISTIQLOL DAVRIDA IJOD ERKINLIGI

I.1. MUSTAQILLIK DAVRIDATASAVVUFONA ADABIYOTNING O‘RGANILISHI

Diniy-tasavvufiy adabiyot mumtoz adabiyotning ajralmas bir qismi bo‘lib kelgan. Bu adabiyot vakillari jamiyat taraqqiyoti, kishilik jamiyatining ma‘naviy ongini shakllantirishga, rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelgan. Chunki har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhiti, o‘sha muhit yetishtirgan mutafakkirlarning fikr-qarashlariga asoslanib shakllanadi. Tariximizda nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu sohada faoliyat ko‘rsatgan bir qator ijodkorlarimizni nomlarini aytish mumkin. Ana shunday ijodkorlardan biri, islom madaniyati yetishtirgan ulug‘ mutafakkir va ma‘rifatparvarlardan biri Ahmad Yassaviy alohida o‘rin tutadi.

Ahmad Yassaviy ijodiga bo‘lgan befarqlik o‘tgan asrda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarning mahsulidir. Chunki Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Sulaymon Boqirg‘oniy, Huvaydo, A. Navoiy, Z. M. Bobur va bir qancha mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan omillardan biri islom va uning asosini tashkil etgan Qur‘oni Karim hamda Muhammad payg‘ambar hadislaridir. Lekin adabiyotshunoslikda bu masala juda kam o‘rganilgan. Masalaga shu jihatdan yondoshadigan bo‘lsak, “Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she‘riyatining atoqli vakili. U “Devoni hikmat” asari bilan jahonning bir necha mamlakatlarida ma‘lum va mashhur bo‘lgan. Boborahim Mashrab g‘azallaridan birida “Ruhi jonim arshg‘a yetdi men o‘zim osmoniman”, degan edi. Shu ma‘noda Yassaviy Mashrabga o‘xshash shoirlarning rahnamalaridan, yuksak ruh donishmandi, uning ruhiy olami murakkab va ziddiyatli bo‘lib, bular ijodiyotida butun teranligi bilan aks etgandir”¹

¹Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: G‘ur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1991y.5-b.

Biz bilamizki, har bir ijodkor o'zi yashagan ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri ostida o'z fikr-qarashlarini shakllantiradi.

Bugun Ahmad Yassaviy ijodi haqida gapirar ekanmiz, uni bir umr xudo yo'lida fidokor xizmat qilganligini aytmay bo'lmaydi. Shoir umri davomida islom dinini, uning farzu-sunnatlarini targ'ib etdi.

Din va shariat targ'ibotchisi, shoir Ahmad Yassaviy XI asrning o'rtalarida Sayramda Ibrohim ota xonadonida dunyoga keldi. U juda yoshligida onasidan, yetti yoshligida otasidan ayrildi. Yassaviy yoshligidan bobosi Arslonbobo qo'lida tarbiyalanadi. Shoirning ustozlari fiqh va tasavvuf ilmining donishmandi Yusuf Hamadoniy edi. Ustozining vafotidan keyin Yassaviy yana yurtiga-Yassiga qaytib keldi.

“Xoja Ahmad Yassaviy O'rta Osiyoning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim mavqega ega bo'lgan, hozirgi Turkiston, oldingi Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tavallud topgan. Yassaviyning vafot tarixi ilmiy adabiyotlarda 1166-67 yil deb belgilanganki, bunda olimlarning fikr-qarashlarida deyarli ixtilof yo'q.

Yassaviy qachon tug'ilgan? Qancha umr kechirgan? Bu savollarga javoblar esa bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Ahmad Yassaviyning tavallud sanasini Shahobiddin Yassaviy 1103-yil deb ko'rsatgan. Qozoq olimasi S. Taqiboyeva kitobida 1105-yil deb belgilagan. Tilshunos H. Ne'matovning fikriga ko'ra, Yassaviy 1197-yilda dunyoga kelgan. Bir qator tadqiqotchilar Yassaviy 63 yil umr kechirgan deyishsa, boshqa birlari 73 va 85 yil yashagan, degan qarorga kelishgan.

Atoqli yassaviyshunos Muhammad Fuod Kuprulizodaning aytishicha, Yassaviy 120 yosh yashab hayotdan ko'z yumgan. Rus olimi V. A. Gordlevskiy bu raqamni yana besh yilga ko'paytirib, Yassaviy 125 yil yashagan, deydi. Albatta, olim “Devoni hikmat”dagi:

Yoronlardan fayz va futuh ololmadim,

Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim,-

degan fikrlari asosida shunday xulosaga kelganligi shubhasizdir”¹.

Ahmad Yassaviy turkiy tilda yozgan hikmatlari bilan ko‘proq dong taratgan. Tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mutafakkirlarning fikr-qarashlarini yaxshiroq anglash uchun ular yashagan ijtimoiy-madaniy muhitni bilish kerak. Chunki ularning dunyoqarashlarida o‘sha davr tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarining muayyan ta’sirlari iz qoldiradi. Shu bilan birga, mutafakkirlar o‘z fikr va nazariyalari bilan muhitlarini o‘zgartirar va hatto ijtimoiy jihatdan yo‘nalish baxsh etadilar. Ya’ni, ijtimoiy muassasalarining shakllanishi va faoliyatiga ta’sir o‘tkazadilar.

Arablar isti’losidan keyin Islomni qabul qilgan turkiylar bu dinni tarqatish va islom madaniyatini rivojlantirishda faol ishtirok etdilar. Markaziy Osiyoda uzoq davom etgan kuchli bir islomiy davlat qurilmagan bo‘lsa ham, bu din Markaziy Osiyo xalqlari orasida hamjihatlikni ta’minlovchi dunyoqarash hamda e’tiqod tizimi o‘laroq muhim rol o‘ynadi va hanuz bu vazifasini davom ettirmoqda. Ahmad Yassaviy yashagan davrda Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat barqaror emas edi. Shunga qaramay, Malikshohdan keyin Xuroson va Movarounnahrni birlashtirgan Sulton Sanjar vafot etgach Xorazmshohlar davlati saljuqiylardan qolgan bo‘shliqni to‘ldirishda ancha muvaffaqiyat qozondi. Yassaviy yashagan hududda saljuqiylarga tobe bo‘lgan qoraxoniylar hukmronlik qilishar edi. Avvalgi hukumat singari qoraxoniylar ham olim va shoirlarni qo‘llab-quvvatladilar. Natijada, Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoning Qoshg‘ar, Balasog‘un, Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlari ilm va madaniyat markazlariga aylandi.

Arab isti’losidan keyin islom diniga e’tiqodi kuchli, Muhammad payg‘ambarimiz izidan boruvchi kishilar fazilatli kishilar hisoblangan. Bunday kishilar o‘z o‘rnida turli nomlar bilan: sahoba, tobiun, atbo ut-tobiunlar deb atalgan. Bulardan so‘ng turli qarashlari bir-biriga zid bo‘lgan oqimlar paydo bo‘lgan.

¹Ibrohim Haqqul. Taqdir va Tafakkur. T.: 2007 yil. 20-bet.

Xalq orasida o‘zlarining dinga nisbatan kuchli e‘tiqoddaligi bilan ajralib turgan so‘filar alohida ajralib chiqdilar. “Demak, tasavvuf bid‘at, g‘aflat, dunyoparastlik haqidagi parokandaliklarga qarshi bo‘lgan xolis niyatli kishilarning maslagi o‘laroq tug‘ilgandir”¹.

Tasavvuf bir jihatdan shaxsning Yaratuvchisiga, o‘ziga, yashab turgan jamiyatdagi muhitga va hatto barcha maxluqotga nisbatan yuksak munosabatini aks ettiruvchi “irfon” saviyasini yuksaltiradigan bir muassasadir. Yassaviy va boshqa mutasavviflar kishilarning irfoniy va tarbiyaviy darajalarini oshirishda katta rol o‘ynadilar.

Shoir yashagan davrda Markaziy Osiyoda iqtisodiy hayot asosan dehqonchilik va savdo-sotiqdan iborat edi. Islomning kirib kelishi bilan o‘lkada tijoriy aloqalar rivoj topa boshladi. Buyuk ipak yo‘li guzargohi bo‘lgan bu hududda savdo faoliyatlarining kuchayishi tufayli dehqonchilik rivojlandi. Buxoro va Samarqand kabi madaniyat markazlari ayni vaqtda tijorat va hunarmandchilikning ham o‘choqlari edi. Yassaviyning islom dunyosiga doir keng ma’lumotga egaligini, o‘sha paytda o‘lkadagi savdo aloqalarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi bilan bog‘lash mumkin. Islom olamida tijorat erkin yo‘lga qo‘yilgan davrlarda ilm-ma’rifat rivoji ham surat bilan taraqqiy etgan.

Arablar istilosidan keyin islom dinini qabul qilgan O‘rta Osiyo xalqlari yangi bir madaniyat va ma’naviyat maydoniga kirgan edilar. Mana shu davrda tasavvuf shakllandi va keng rivojlana boshlandi. So‘fiylik va tasavvuf tariqatlari yuzaga keldi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, eramizning birinchi asridan boshlab bu dunyo mol-dunyosi nafsiga berilgan oqimlar alohida bo‘lib chiqdilar. Sof islom yo‘lidan borib, besh vaqt namoz, ro‘za kabi islom ruknlariga amal qiluvchilar so‘filar deb ataldi. So‘filar xalq orasidagi Haqning e’tiborli qullari hisoblangan.

¹Ibrohim Haqqul. Meros va mohiyat. T.: Ma’naviyat. 2008 y. 4-bet.

“Xo‘sh, tasavvuf o‘zi nima? Diniy-axloqiy ta‘limotmi yoki falsafami? Nima deb qarash kerak tasavvufga: dunyoni bilish va idrok etish yo‘li debmi? Yoki tarkidunyochilik debmi?” singari bir qator savollar tug‘ilishi mumkin. Hindistonlik professor Inoyatxon yozadi: “Qat‘iy aytganda, tasavvuf din ham emas, falsafa ham emas. U deizm ham emas, ateizm ham emas. Umuman shularning ortasida turadi va ular orasidagi yetishmovchiliklarni to‘ldiradi”. Tasavvuf ruhini hech ikkilanmasdan islomiy ruh deyish joiz. Chunki tasavvuf, birinchi galda, islom haqiqatlarini qalb va vijdon orqali bilish va his qilish ilmi. Lekin ayni paytda Odam farzandlariga ato etilgan boshqa bir qator dinlarning sof mohiyatini ham o‘zida mujassamlashtirgan”.¹

Markaziy Osiyoda madaniy hayot avj olgan bir davrda Ahmad Yassaviy yashab ijod etdi. Mamlakatda siyosiy hukmronlik tez-tez almashib turganiga qaramay, madaniy hayot barqarorligi davom etavergan. Taxtga kelgan har podshoh ilm-madaniyatni qo‘llab-quvvatlab, o‘z atrofida ilm ahlini to‘plashga katta e‘tibor bergan. Shu tufayli yuz yillar mobaynida islom olami va turkiy dunyoga kuchli ta‘sir ko‘rsatib kelgan Markaziy Osiyo islomiy madaniyati XII asrda ham muhim o‘zgarishni boshidan kechirgan. Bu davrda Buxoro xonlari shahardagi madrasalar faoliyatiga alohida e‘tibor bilan qaraganlar va ular minglab talabalarning ta‘lim olishlariga yordam qo‘lini cho‘zganlar. Yassaviy xuddi shu davrda yashab, ijod qildi. Ustozi va murabbiy shayx Yusuf Hamadoniy o‘z davrining ilg‘or olimlaridan bo‘lib, shogirdi Xoja Ahmadning shar‘iy va tasavvufiy bilimlarni egallashiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan.

Ma‘lum bir ijtimoiy tuzum davrida barch diniy-tasavvufiy adabiyot vakillari singari Ahmad Yassaviy ijodiga munosabat ham haqiqatdan chekingan holda yondoshilib kelindi. Chunki biz istaymizmi, istamaymizmi Yassaviy hayoti va ijodini tahlil qilishda shoir yashagan davr bilan hisoblashishimiz zarur bo‘ladi. Ahmad Yassaviy Xudoga sig‘ingan, islom

¹Ibrohim Haqqul. Meros va mohiyat. T.: Ma‘naviyat. 2006. 18-bet.

diniga sodiq bo'lgan. Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim mavqeyga ega bo'lgan. Mustaqillik yillarida ko'pgina mutafakkirlar qatori Yassaviy shaxsiyati va ijodiyotiga qiziqish ham kuchaydi. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'z nutqlaridan birida Yassaviy haqida shunday degan edilar: "Ulug' bobomiz Xoja Ahmad Yassaviy ruhi poklariga ehtiromimiz benihoya. Bugun ularning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi"¹.

Haqiqatda ham, istiqlol davriga kelib insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy hikmatlarga ehtiyoj sezilmoqda. Turkiy til go'zal, qudratli, ta'sirchan va bag'ri keng tildir. Qadim zamonlarda bu tilda buddaviylik, moniy diniga doir matnlar sharhlangan. Bu tilda boshqa dinlarning haqiqatlarini ifodalovchi she'rlar yozilgan. Ammo Ahmad Yassaviy o'z ona tilini ilk bor tariqat til maqomiga ko'tardi. Uni arab va fors tasavvuf tili davrasiga qo'shdi. Shuning uchun Piri Turksitoniyning she'rlaridagi har bir so'z, har bir ibora islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurlil va ilohiydir. Buni Alisher Navoiyning mana bu fikrlaridan ham bilish qiyin emas: "Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir. Maqomati (darajasi) oliy va mashhur, karomati matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish... Turksiton ahlining qiblai duosidir"².

Ahmad Yassaviy hozirgi Turkiston, oldingi Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tavallud topgan.

Yassaviyning yashash muddatini 75-85 atrofida belgilagan olimlarning taxminlari haqiqatga yaqinroqdir.

Xullas, Yassaviy XI asrning ikkinchi yarmida Sayramdagi eng nufuzli oilalardan birida, ma'rifatli va javonmardlikka ixlos-e'tiqodi bilan shuhrat taratgan Shayx Ibrohim oilasida tug'ilgan. Onasi Shayx Ibrohimning

¹Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: 2008. 48-bet.

²Alisher navoiy.MAT, 17-tom.T.: 2001. 87-bet.

xalifasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun edi. Bu oilada avval bir qiz tug‘iladi. Unga Gavhar Shahnoz deb nom qo‘yishadi, Ahmad tavallud topgach, ko‘p o‘tmay onasi vafot etadi. Yetti yoshida esa otasidan ajraladi va uning tarbiyasi opasi Gavhar Shahnoz zimmasiga tushadi. Keyin ular Yassiga ko‘chib borishadi. Yassida yashagani uchun “Yassaviy” taxallusi bilan tilga olinadi. Yosh Ahmad birinchi ustoz Arslonbob bilan uchrashadi, undan tahsil oladi. “Bob” arabchada “eshik” ma’nosini ifodalaydigan so‘z bo‘lib, turkchada bu kalima islom dini targ‘ibi uchun fidoiylik ko‘rsatganlarga beriladigan bir laqab bo‘lgan. Alisher Navoiy Farg‘onada “*ulug‘ mashoyixni Bob derlar*”, - deydi. Shuningdek, “bob” va “bobo” so‘zlari shayx, pir, valiylarga nisbatan ham qo‘llanilgan. Ahmad Yassaviy Turkistondagi boblarning eng buyugi, deb e’tirof etilgan Arslonbobdan tahsil olgan. Arslonbob tirikligidayoq Ahmad Yassaviyni Buxoroga borib, tahsilni davom ettirishga da’vat etgan edi. Ustozining vafotidan so‘ng Yassaviy bilimini oshirish uchun Buxoroyi sharif tomon yo‘l oladi. U Buxoroda, eng avvalo, diniy va tasavvufiy ilm sirlarini chuqur egallashga kirishadi. Arab tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham puxta o‘zlashtiradi. Zamonasining peshqadam olimi va so‘fiysi Shayx Yusuf Hamdoniyga murid bo‘ladi. Hamadoniy mutasavvif bo‘lish bilan birga hadis olimi ham edi. Shu bois aytish mumkinki, Yassaviyning hikmatlari va ta’limotidagi oyat va hadis ta’sirlarining manbalaridan biri muqaddas ustozidan olgan darslaridir. Hamadoniyning ta’lim-tarbiyasi bilan qisqa vaqtda yuksak saviyalarga erishib, uning uchinchi xalifaligiga yetishadi. Hamadoniy vafotidan so‘ng bir muddat uning ishini davom ettiradi, “irshod va da’vat maqomi” qo‘lga kiritilgach, Yassiga qaytib, yangi bir tariqatga asos soladi. Yassaviylik nomi bilan dong taratgan bu tariqat bir turk mashoyixi tomonidan turkiy xalqlar orasida bunyod etilgan ilk tasavvuf tariqati edi. Ustoz forsiyda so‘zlab, forsiyda yozganiga qaramay, Yassaviy o‘zi mansub bo‘lgan turkiy tilda ijod qiladi. Bilim va ma’rifatini shu til bilan ommaga yetkazadi. U hikmatlarida

badiiyatga ortiq darajada e'tibor qilmaydi, chunki uning g'oyasi to'rtliklar orqali ommaga islom arkonlarini tushuntirish edi. So'zlari va she'rlari bilan ko'chmanchi turkiy qavmlarga islomiy asos-qoidalarni o'rgatar ekan, avvalombor bu qoidalarga o'zi amal qildi.

Imom Muhammad Hanafiy ibn Ali avlodidan bo'lganligi uchun ham "Xoja" laqabi berilgan Yassaviy hazratlari "Ahmad Yassaviy", "Xoja Ahmad", "Xoja Ahmad Yassaviy", "Qul Xoja Ahmad" singari ismlar bilan tilga olingan. Yassaviyning Ibrohim ismli o'g'li, Javhar Xushnoz, Javhar Shahnoz ismli qizlari bo'lgan. Naslu nasabi Javhar Shahnoz orqali davom etgan. Yassaviy tirikchiligini qoshiqtaroshlik qilib o'tkazgan va boshqalarga ham halol mehnat qilib kun kechirishni targ'ib qilgan.

Yassaviy 63 yoshga kirganda, Muhammad (s.a.v) dan ortiq umr ko'rishni xohlamay, yer ostiga chillaxona qazdirib, umrining oxirigacha o'sha yerda hayot kechirgan. 1166-yilda vafot etgan Yassaviy qabri ustiga oradan ikki asr o'tgandan keyin Amir Temur katta maqbara qurdiradi. Bu maqbara musulmon xalqlarining muqqaddas ziyoratgohlaridan biriga aylangan.

Ahmad Yassaviyning buyukligi, avvalombor, uning tasavvufiy tushunchalarini nihoyatda teran anglaganligi, bularni o'zida mujassam etgan buyuk mutasavvif va komil bir xurshid bo'lganligi bilan belgilanadi. U tasavvufiy bir maslak bilan Haqqa qullik qilgan, ixlos va taqvoning cho'qqisiga ko'tarilgan, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlariga yetishgan, zohiriy va botiniy ilmlaridan voqif bir Haq oshig'i, ko'ngillarni fath etgan zabardast siymodir. Uni ulug'lik maqomiga ko'targan xislatlar ana shulardir.

Islomni qabul qilgan turkiy xalqlar olamidagi to'qson to'qqiz ulug' mutasavvif donishmandlar shayxi, Xuroson va Movarounnahrning valisi deb atalgan Xoja Ahmad Yassaviyning eng mashhur shogirdlari quyidagilardir:

Hakim oto,
Mansur oto,
Zangi oto,
Shayx Luqmoni Parranda

Bahouddin Naqshband Hakim otosilsilasi orqali, Qosim Shayx Karmanagiy esa Zangi oto silsilasi orqali Ahmad Yassaviy tariqatiga bogʻlanadilar.

Ahmad Yassaviy turkiy adabiyotda hikmatnavislik anʻanasini boshlab berdi. Yassaviy asos solgan Yassaviylik tariqati tasavvufdagi boshqa tariqatlardan deyarli farq qilmaydi. Uning asosiy farqlanuvchi jihati tilidadir. Unda islomiy tasavvuf gʻoyalari ilk marta turkiycha talqin etilgan edi. Yassaviyning ikkinchi bir oʻziga xos va muhim tomoni, uning Qurʼoni Karimni tayanch manba bilib, forsiy tildagi tasavvuf tajribalaridan ijodiy foydalanish bilan bir qatorda turkiy axloq, qadimiy turkiy dunyoqarash va ishonchlardan yiroqlashmaganligidir.

Yassaviy tariqati shoir hayotlogidayoq turli oʻlkalarga tarqala boshladi, uzoq oʻlkalarga muridlarini joʻnatib, oʻz tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. U riyozat, chilla, zikr va mujohadaga kuchli ahamiyat berib, hayotining aksar qismini chillaxonalarda oʻtkazdi.

Yassaviya tariqatiga xojagon tariqati deb nom berilgan edi. U avval Sayxun va Toshkent hududida, keyinroq Xorazm, Movarounnahr, Xuroson, Ozarbayjon va Onadoʻli diyorlarida keng tarqaldi. Bu tariqat keyinchalik naqshbandiya tariqati doirasida davom etdi. Turkiy qavmlarning islom diniga kirishida Yassaviya tariqatining buyuk hissasi bor.

Yassaviy oʻz fikr-qarashlarini xalq ommasiga asosan sheʼriy shaklda yetkazdi. Sheʼrlar asosan toʻrt misradan iborat boʻlib, oxirgi misralar qofiyalangan. Bu ogʻzaki sheʼrlarni oʻzidan keyin muridlari nasldan naslga yetkazib keldilar. Uning “Devoni hikmat” majmuasining qadimiy nusxasi topilmagan. Mavjud nusxalarning qadimiysi XVII asrga oiddir. “Devoni

hikmat” dagi she’rlar to’liq Yassaviyga mansubligi ehtimol bo’lsa ham, she’rlarning mazmun mohiyati to’la ma’noda unga tegishlidir. Muridlari hurmatli ustozlarining nasihatlarini nasldan naslga yetkazib, hikmatlardagi shakl va ma’noni saqlab qolishga uringanlar.

Ahmad Yassaviy birinchi bo’lib hikmatnavislik an’anasini boshlab bergan ijodkor. Yassaviy hikmatlarining bosh fazilati va xosiyati shundaki, ular, eng avvalo, she’rxonni birlik kuchiga ishontiradi, ilohiy birlik shavqi bilan ko’ngilni poklaydi. Yassaviy hikmatlarini o’qigan kishi go’zal axloq va yaxshi amal, yuksak orzu mahbubiga aylanadi, asta-sekinlik bilan bo’lsa-da, o’tkinchi dunyo da’volaridan yiroqlashib, ma’no va mohiyatga yuz buradi. Chunki Ahmad Yassaviy ko’zlagan bosh maqsad orifona maqsad bo’lgan. Shuning uchun u o’z ijod namunalariga hikmat nomini bergan.

Mutasavvif shoirlar, jumladan, Ahmad Yassaviy uchun ham hikmat laduniy mohiyatga egadir. Forobiyning ta’kidlashicha, hikmat beshigi faylasuflarning ongi emas, payg’ambarlarning ko’nglidir. Qur’onning “Baqara” surasida bunday deyilgan: “U, ya’ni fazli karami keng Olloh o’zi istagan kishilarga hikmat beradi. Kimga hikmat berilgan bo’lsa, muhaqqahki, unga ko’p yaxshilik berilibdi”¹. Luqmon surasining 12-oyatida, “Aniqki, biz Luqmonga hikmat ato etdik”² deyilgan. Shu ma’noda ko’p mutasavviflarga Luqmoni hakim o’rnak bo’lgandir. Yunus Emroning: “O’qib hikmat ilmini Luqmon o’layin bir zamon”, deyishi shunchaki orzu bo’lmagan, albatta. Ahmad Yassaviyda ham hikmat – “ilmi laduniy”, ya’ni ilmi g’aybi haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf etmoq va ifodalamoq mazmuniga teng.

Ahmad Yassaviyda hikmat aytish istagi ilohiy-ruhiy ehtiyoj sifatida juda yoshligidan paydo bo’lgan deyish mumkin. Lekin boshqa bir o’rinda:

O’ttiz to’rtida olim bo’lib, dono bo’ldim,
Hikmat ayt deb subhon aydi, go’yo bo’ldim,

¹Qur’oni Karim. 2/269. T.: 2002, 45-b.

²Qur’oni Karim. 31/12. T.: 2002, 44-b.

deydiki, uning “ichi-toshi haq nuriga” to‘lgan ayni o‘sha vaqtlarda ilohiy ma’no va tuyg‘ular hikmatga aylanganligi ehtimoldan xoli emas.

Turkiy adabiyot asavvuf yo‘nalishida komillik yo‘lida boshidan kechirgan ruhiy-ma’naviy hodisalarni tarjimayi hol tarzida ifoda etish holatlarini ham uchratish mumkin. Masalan, Imom G‘azzoliy “Al-Munqiz” asarida xuddi ana shunday ruhiy o‘zgarishlarni go‘zal bir yo‘sinda bayon etgan. Uning yaqin maqomiga ko‘tarilishdagi izlanishlari, taqlid noqisligidan qutulish uchun intilishlari ulug‘ bir insoniy zafardir¹. Ahmad Yassaviy ham “Devoni hikmat”ida o‘z ruhiy-tarixini tarjimayi hol tarzida bayon etgan va yilma-yil yuzaga kelgan ruhiy tajribalarni juz’iy unsurlarigacha ko‘z o‘ngimizda namoyon etgan.

Xudovando, meni solg`il o‘z yo‘lingo,
Nafs ilgida xarob, ado bo‘ldum mano.
Fisqu fujur to‘lib-toshib, haddin oshti,
Farqob bo‘lib isyon ichra qoldim mano.

¹AdhamJabajio‘g‘li. AhmadYassaviyvauningtasavvufiyqarashlari // XojaAhmadYassaviy: hayoti, ijodivaan‘analari. Toshkent, 2001. 87-bet.

I.2. TASAVVUF ADABIYOTI VAKILLARI VA ULARNING IJODIYOTIGA BO‘LGAN MUNOSABAT

Mustaqillik davriga kelib ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani singari adabiyotda ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Turkiy xalqlar tarixi madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, adabiyot, san’at, musiqa va siyosat jihatidan eng ibratli va jahoniy e’tiborga loyiq tarix hisoblanadi. Bu tarix dunyoda nomi o‘chmas buyuk allomalarni, adabiyot va san’at darg‘alarini, odil hukmdor va vatanparvar qahramonlarni yetishtirib bergan. Turkiy xalqlar tarixida ma’naviy nufuzga erishgan va tafakkurning behad keng sarhadlarini egallagan zotlar behisobdir. Lekin aynan Xoja Ahmad Yassaviyga o‘xshab, asrlar mobaynida turkiy qavmlar va elatlar ruhoniy hayotiga rahnamolik qilgan, to shu kunlarga qadar tasavvuf, adabiyot, madaniyat, ma’naviyat, hatto siyosat jabhasida ham ta’sirini o‘tkazib kelgan siymolar barmoq bilan sanarli.

Ahmad Yassaviy islom asoslarini xalq ommasiga yetkazgan bir murabbiydir. U o‘zi asos solgan tariqati orqali insonlarni musulmon axloqiga mos ravishda tarbiyalashga urindi. Islomni yangi qabul qilgan Sayram turkiylari uning pand-nasihatlaridagi diniy ta’lim-tarbiya va axloqiy qoidalarni qadimiy turk odobidan ajratmagan holda qabul qildilar. Shu tufayli bu ulug‘ murabbiyni tushunishda aslo qiyinchilik sezmadilar. O‘z oralaridan chiqqan bu ustoz ularga sog‘lom axloq yo‘lini ko‘rsatuvchi rahnoma edi. Uning dargohiga kelgan va tariqatga kirganlar“Devoni hikmat”ni yod olishar, qobiliyatlari bo‘lsa unga naziralar bitar edilar.

Markaziy Osiyoda islomning quvvat topishi va har tomondan to‘g‘ri qabul qilinishida Yassaviy she’r va nasihatlarining xizmatlari beqiyosdir. Uning ta’lim-tarbiyasida asosan tasavvufga e’tibor berilishi, islomiy axloqning bashariy harakatlarda o‘rin topishini qulaylashtirgan. Markaziy

Osiyoda yashagan ko'chmanchi qavmlar Yassaviy pand-nasihatlarini tez va oson tushunganlari bois amaliyotga ham qiyinchiliksiz joriy etganlar.

Yassaviy o'z hikmatlari orqali xalq ommasiga oyat va hadislar mazmunini yengil, sodda tarzda anglatdi... islomning ijtimoiy tuzilishiga tamal asoslarini didaktik va fikrlovchi bir uslubda ommaga yetkazdi:

Ayo do'stlar, quloq soling aytdug`imga,

Ne sababdin oltmish uchda kirdim yerga.

Me`roj uzra Haq Mustafu ruhim ko`rdi,

Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.¹

Yassaviy kamolotga faqatgina sevgi va ishq orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, oshiq komil insondir. Oshiqning sifatlari: manmanlikdan voz kechish; boshqalarga g'amxo'r bo'lish; qanoatkor bo'lish; o'zgalarga yaxshilik qilish; hech qachon umidsiz bo'lmaslik; behuda ishlarga vaqt sarflamaslik; yolg'on so'zlamaslik.

Islomiy ta'lim-tarbiyada ko'ngil ranjitmaslik va boshqalarga mehrshafqat bilan muomala qilish bosh talablardandir. Buni Yassaviy hazratlari ham maxsus ta'kidlaydi:

Sunnat emish kofir bo'lsa berma ozor,

Ko'ngli qottig' dilozordan Xudo bezor.

Alloh haqqi ondog' qulg'a Sijjin tayyor,

Donolardin eshitib bu so'z aydim mano.

Yassaviy o'z hikmatlarida yomonlikdan saqlanish mavzusiga to'xtalar ekan, eng katta razolat yolg'on gapirishdir, deydi:

“Al kazzobu la ummati” dedi sizga,

Ul Muhammad Haq rasuli oydi bizga.

Yolg'onchiga jannat yo'qtur valloh onga,

Yolg'on so'zlab imonsizin ketmang do'stlar.

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: G'fur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991y.48-b.

Yassaviy yo‘qsil va g‘ariblarga yordam qilish – komillik belgisi ekanini aytadi. Alloh rasulining faqirlarga yaxshilik qilganini o‘rnak qilib ko‘rsatadi:

Qayda ko‘rsang ko‘ngli sinuq malham bo‘lg‘il,
Ondog‘ mazlum yo‘lda qolsa hamdam bo‘lg‘il,
Ro‘zi mashhar dargohiga marham bo‘lg‘il,
Moumanlik xaloyiqdin kechtim mano.
G‘arib, faqir, yetimlarni Rasul so‘rdi,
O‘shal tuni Me’roj chiqib diydor ko‘rdi.
Qaytib tushub g‘arib yetim izlab yurdi,
G‘ariblarni izin izlab tushtim mano.

Yassaviy asos solgan tariqat bir jihatdan ta’lim-tarbiya muassasasidir. Tariqat marosim va tamoyillari insonni tarbiyalab, komil bir musulmon bo‘lishini maqsad qilib qo‘ygan. Islom tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, shuni ko‘ramizki, tasavvuf tariqatlari xalq ommasining islomni anglagan holda hayotga tadbiq etishi va moddiy-ma’naviy jihatdan taraqqiy qilishi uchun sharoit hozirlagan muassasalar sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan.

Shoirning “Devoni hikmat”dagi fikr-qarashlari doim va har joyda e’tiborga loyiqdir. Zero, hikmatlarda asosan, tasavvufiy axloq bosh g‘oya sifatida kuylangan. Hikmatlar har davrdagidek, bugun ham turkiy xalqlar uchun yaxshi bir ta’lim-tarbiya vositasidir.

Yassaviy hikmatlarining inson axloqini tarbiyalashdagi rolini ko‘rmaslik mumkin emas. Chunki tariqatlardan maqsad: o‘rnak shaxsning atrofida insonlarning to‘planib, uning ma’naviy shaxsiyati orqali tarbiyalanmog‘idir. Shu sababli axloqiy ta’lim eng go‘zal tarzda tariqatlarda o‘z aksini topgan. Chunonchi, o‘tmishda madrasalarda ziyolilarga ilmiy ta’limot berilgan bo‘lsa, tariqat va xonaqohlarda ularning ma’naviy komilligi va ijtimoiy hayotdagi bilim va tajriba kamolotini ta’minlagandir. Shu jihatdan Yassaviy tariqati Markaziy Osiyoda bir ta’lim-tarbiya vositasi – o‘chog‘i sifatida beqiyos xizmat qilgan. Yassaviy tariqatiga mansub bo‘lgan kishilarda

mas'uliyat hissi kuchli bo'lgan va ana shu mas'uliyat hissi bilan jamiyat orasiga kirganlar. Ijtimoiy hayotning va ta'lim andozasining yuksalishida tariqatlarning ijobiy ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan.

Ahmad Yassaviy tariqatining boshqa tariqatlardan farqli tomoni faqat tildadir. Unda islomiy tasavvuf g'oyalari ilk marotaba turkiyda talqin etilgan edi. Yassaviyaning ikkinchi bir o'ziga xoslik tomoni uning islom dini, shu dinning muqaddas kitobi Qur'onni tayanch manba bilib, forsiy tildagi tasavvuf tajribalaridan ijodiy foydalanish bilan bir qatorda turkiy axloq, qadimgi dunyoqarash va ishonchlardan yiroqlashmaganidadir. Badiiy ijodda vatandan judolik, g'urbat, ayriliq, yurt sog'inchi xususida keng bahs yuritilgani ma'lum.

Olim Ibrohim Haqqul bu haqida shunday fikr yuritadi:

“O‘zbek tasavvuf she‘riyatida esa “g‘urbat” va g‘ariblik” masalasini maxsus talqin etish bevosita Yassaviy tajribalari bilan bog‘liq”¹. Ulug‘ shayx e’tiroflari bo‘yicha:

G‘urbat tegsa, puxta qilur ko‘p xomlarni,
Dono qilur, ham xos qilur ko‘p xomlarni.

Chunki, hatto payg‘ambar-u sahobalar ham g‘urbat otashida toblanmishlar:

G‘urbat tegdi Mustafodek eranlarga,
O‘ttiz uch ming sahoba ham yoronlarga.

Ahmad Yassaviy g‘urbat va g‘ariblik dardlarini talqin qilarkan, albatta, o‘z qismati, ayriliqda ko‘nglida tug‘ilgan holatlarga ham asoslangan edi:

Xurosonu Shomu Iroq niyat qilib,
G‘ariblikni ko‘p qadrini bildim mano.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, Yassaviy hikmatlarida g‘urbat tushunchasi ko‘proq ilohiy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, unda azaliy vatanga intiluvchi ruh ayrilig‘i aks ettirilgan”².

¹Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy / Taqdir va tafakkur. Toshkent, 2007. 26-bet.

²Ibrohim Haqqulov. Taqdir va tafakkur. T.: 2007. 26-b.

Yassaviy ilodiga xos shunday xususiyatlar haqida fikr yuritar ekan, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul yana shunday qarashlarni ilgari suradi: “Umuman olganda, tasavvufda vatanparastlik aqidasi yo‘q. Tasavvufiy ta‘limot bo‘yicha, insonning asl vatani-mutlaq borliq. Inson shu borliqda paydo bo‘lgan. Boqiy “Diyor” – o‘sha muqaddas borliqqa qaytajak. Shu bois haqiqiy so‘fiy hech vaqt “Mening Arabistonim” yoki “Mening Turkistonim” demaydi va demasligi kerak. Chunki bunday maslak ilohiy ishq talabiga ziddir”¹.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Vatan va vatanparastlik hissiyotlari o‘z aksini topgan. Zero, Yassaviy din va tasavvufni targ‘ib qilishni ko‘zlagan turkiy qavmlar qalbiga to‘la-to‘kis ta‘sir o‘tkazish uchun milliy idrok, milliy g‘urur va uning tamali hisoblanmish Vataniy axloq va yurt sevgisini e‘tiborga olmog‘i zarur edi. Mana shuning uchun Yassaviy hech ikkilanmasdan tasavvuf she‘riyatiga Vatan mavzusini olib kirgan. Yassaviylik yurt ishq, Vatan himoyasi va ravnaqi uchun kurashga chorlaydigan tariqat. Afsuski, bu haqiqat uzoq yillar davomida noto‘g‘ri va teskari tushuntirilib kelindi. Yassaviy va Yassaviylikka aloqasiz siyosiy tanqidlar to‘qildi.

Ahmad Yassaviy hikmatlari, uning tariqati mafkurasi uchun, hech shubhasizki, ojizlik va qaramlikka ko‘nish, zulm va zolimlikka yon berish, nafs hirsida oliy tuyg‘ularni qurbon aylash, mahdudlik va aqidaparastlik mayllari begona edi. Shuning uchun ham bu tariqat Markaziy Osiyoda, Xorazm, Kavkaz va O‘rta Volganing tatar o‘lkasida ko‘p sonli namoyandalariga ega bo‘lgan. Xuroson, Eron va Onado‘lida Yassaviyga izdosh guruhlar faoliyat ko‘rsatishgan edi.

Yassaviy hikmat nomini bergan tasavvufiy she‘r an‘anasiga asos solmaganda, umuman, turkiy adabiyotda irfoniy mavzu, g‘oya va timsollarning tarixi yoki taqdiri qanday kechishini aniq ko‘rsatish ham mushkullashardi.

¹Ibrohim Haqqulov. Taqdir va tafakkur. T.: 2007. 26-b.

Yassaviy turkiy tasavvuf adabiyoti tamalini yaratib, keyingi davr tasavvufiy she'riyatining rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkazgandir.

Yassaviy masjidi peshtoqiga Payg'ambar (s.a.v.)ning "*Talabul ilmi farizatun ala kulli muslimin va muslimatun*", ya'ni ilm talab qilish har bir musulmon va muslima uchun farzdir, hadisi bitilgan ekan. Bu esa Ahmad Yassaviyning o'z davrining buyuk ma'rifatparvari, mutasavvufi va donishmandi ekanligini ko'rsatadi.

Islom dini ilm tahsilini erkak va ayollar uchun farz qilgan. Mutasavviflar xalq ommasiga ilmning fazilatini tushuntirarkanlar, Qur'onning ilk oyati "O'qi!" amri bilan boshlanganini keng izohlaydilar. Yassaviy ilmu ma'rifatli bo'lishni madh etar ekan, johillikning naqadar yomon illat ekanini ham bayon etadi:

Ayo mahbub yo'lda qoldim yo'lg'a solg'il,
Tavbalikni xojam joyin bo'ston qilur.

Qoni olim, qoni omil yoronlar,

Xudodin so'zlasa siz jon beringlar.

Chin olim yostuqin toshdin yaratti,
Nima uqti oni olamga aytti.

O'zini bildi ersa Haqni bildi,
Xudodin qo'rqativu insofg'a keldi.

Yassaviyga ko'ra olimlarning ilmi faqatgina hayotga tadbiiq etilgandagina foydali bo'ladi. Agar olimlar ilmlariga amal qilmasalar, ular bu ilmlari bilan najot topa olmaydilar. Uningcha, xayrli ilm olimga va jamiyatga axloqiy kamolot ato etish kerak deb hisoblangan.

Qozi bo'lg'on olimlar, nohaq fatvo berganlar,
Ondog' qozi joyini nori saqarda ko'rdum.

Mufti bo‘lg‘on olimlar, nohaq fatvo bergonlar,

Ondog‘ mufti joyini sirot-ko‘frikda ko‘rdum.

Diniye`tiqod va ichonchga ko‘ra, siyosiy muassasalarning tamal faoliyati ijtimoiy hayotda adolat o‘rnatish va jinoyatlarni tugatmoqdir. Yassaviy bunday vazifani bajarganlarga itoat etish kerakligini uqtiradi:

Shoir ta`limotiga ko‘ra, olim va hukmdorlar mamlakatda adolat o‘rnatishlari va haqiqatni xalq ommasiga tushuntirishlari kerak. Hokimlarning pora olishlari, olimlarning yolg‘on fatvo berishlari ijtimoiy hayotni xarob etadi va ular oxiratda shiddatli azoblarga duchor bo‘ladilar.

Asrlar davomida bizgacha yetib kelgan manbalarni, ulug‘lar kashf-u karomatlarini izhor etmaydilar, bildirmaydilar, aksincha, ojiz-notavonliklarini e’tirof etadilar. Ayb-u nuqsonlarini aytadilar, ezgu amallarini yashiradilar. Shu boisdan ham, ularning she’rlarida “*men ojiz*”, “*men gunohkorman*”, “*men purxato*”, “*gunoh daryosiga to‘lgan, osiy mujrimman*”, - degan jumlalar ko‘p uchraydi. Vafot etganlaridan keyin esa avliyoliklarining asl mohiyati ochiladi, insonlarni tasarruf eta boshlaydilar. Ya’ni ularning tushlariga kiradilar, o‘ngida ko‘rinadilar, qiynalib qolganlarida yordam beradilar, bunyodkorlikka, jamiyatni moddiy va ma’naviy taraqqiy etishga undaydilar. Yassaviy ham ana shunday tasarruf sohiblaridan biridir.

Ahmad Yassaviy hazratlari nasl jihatdan payg‘ambarimiz avlodidan bo‘lib, o‘z davrida insonlarni ilm-u ma’rifatga chaqirgan, odamlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgan, odamiylik, adolat va mehr-muhabbat g‘oyalarini ilgari surgan mutafakkir olim edi. Shu jihatdan u zot oldida qarzdormiz, undan abadul-abad minnatdormiz.

Payg‘ambarimiz: “Olimlar yer yuzining mash’al – chiroqlari, payg‘ambarlarning yordamchilari, mening vorislarimdir... Ular bilan birga bo‘lish, ularning majlislarida qatnashish – ilmu-irfon, fayzu-barakaning ortishiga sabab bo‘ladi”, - degan ekanlar.

Yassaviy she'rlari hikmat deb atalishini yuqorida qayd etgan edik. "Hikmat" aqlga, mantiqqa, e'tiqodga, ilmu irfonga muvofiq so'zdir. Shuning uchun ham Yassaviyni faqatgina so'fiy shoir deb chegaralash to'g'ri emas. Chunki Qur'oni karimda *"Ato qilur xohlagan bandasig'a din fahmini va kimiki ang'a din fahmi berilubdur, albatta ul odamg'a buyuk xayr ato qilinubdur. Va aqlsizlar qabul etmaslar na sihatni, aqli donishlar esa qabul etarlar"*, - deyiladi. Hikmat aytish iste'dodi buyuk lutf o'laroq Ollohning ulug' mukofoti – ikromi ekan, demak Yassaviy hazratlari xalq ommasiga qarata hikmatomuz, aql-u mantiqqa uyg'un va ilm-u irfoniy haqiqatlarni xitob etgan ulug' mutafakkirdir.

Manbalarga qaraganda, Yusuf Hamadoniy va Ahmad Yassaviy o'z davridagi hamma zohiriy va botiniy ilmlaridan to'la xabardor bo'lganlar. Biroq ular yirik ilm sohiblari va katta obro'ga ega bo'lishlariga qaramay, faqirona hayot kechirganlar; mulkdorlar va mansabdorlardan chetlanganlar; muhtojlarga o'zlarini yaqin tutganlar. Ular mehribon, mushfiq, nozik tabiatli, ayni zamonda, sabot va matonatli bo'lganlar. Hikmatlarning aksariyati buni tasdiqlaydi.

Hikmatlarda 921-yilda musulmon hukmronlari tomonidan kofir deb e'lon qilingan va dorga osilgan mashhur Husayn binni Mansur Xalloy qayta-qayta esga olinadi. Uning nodon mullalar tomonidan vahshiylarcha o'ldirilishi, haqiqiy olimlar va xalqning Mansur Xalloyga yon bosgani hayajon bilan kuylanadi.

Yana bir shunga o'xshagan parchada Husayn binni Mansur Xalloy va 859-yilda halok bo'lgan uning ustoz shayx Zunnun zikr etiladi. Ular yetimparvar, g'ariblar, kambag'allar himoyachisi, g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan ulug' zotlar sifatida vashf etiladi. Rivoyatlarga ko'ra, mullalar Husayn binni Mansur Xalloy jasadini kuydiradilar. Lekin uning kuli sochilganda, muzlab qolgan daryolar erib, shahar ahlini, hukmdorlarni dahshatga soladi. Shunda xalq Shayx Zunun Misriydan madad so'raydilar. Zunnun ularga

yordamga keladi. Ayni zamonda u toshqin daryolarni to'xtatadi, odamlarni sel ofatidan qutqaradi. Podshoh Shayx Zununga o'z mamlakatining yarmisini bermoqchi, qizini nazr sifatida taqdim etmoqchi, ahli ayol, ahboblarini unga xodim qilmoqchi bo'ladi. Lekin Shayx Zunnun bu iltifotdan bosh tortadi. Kelgan nazrlarni xalqqa in'om qiladi. Shayx Zununning haqqoniyligi, ulug'ligini tan olgan podshoh, vazirlar uning izini o'padilar, oldida tiz cho'kib, ta'zim qiladilar, xo'ja, mullalar unga shukrlar aytadilar. Adolatsizlik avj olgani tufayli mamlakatni sel oladi. Haqqoniyat ramzi bo'lgan so'fiylar yurtni undan qutqarib qoladilar. Demak, Yassaviy tarixda ro'y bergan ana shunday hodisalarni eslash bilan ommani ma'rifatli, ilmli kishilarni qadrlashga, ularni avaylashga undaydi.

Musulmonlardaislom e'tiqodiga ko'ra, koinot inson uchun yaratilgan. Insonlar jamoa holida yashab, ishlab koinotdagi foydali qazilmalarni yaroqli holga keltiradilar. Inson haqlariga rioya etgan holda qilingan ishlar ham ibodatning bir qismi sanaladi. Inson qo'lga kiritgan mol-dunyo halol yo'l orqali egallangan bo'lishi kerak. .

Ishq maqomi turlik maqom aqling yetmas,
Boshdin- oyoq jabru jafo, mehnat ketmas,
Malomatlar, ihonatlar qilsa o'tmas,
Lomakonda Haqdin saboq oldim mano.¹

So'fiy shoir dunyo mol-mulkiga ortiqcha ahamiyat bermaydi. Uningcha, komil insonlar haq-huquqlariga rioya etadilar va halol yo'ldan topganlari evaziga ehtiyojlarini ta'minlaydilar:

*Ko'ngul bermay dunyoga, shuru' qilmay haromg'a,
Haqni suyg'on oshiqlar halolidan yemishlar.*

“Devoni hikmat”da so'fiylarning yashash tarzlari bilan aloqador ochiq ifodalarga, o'xshatish va misol-tamsillarga duch kelamiz. Chunonchi, hikmatlarda Yassaviy darveshlarining kundalik hayotidan ham bahs etiladi.

¹Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: G'ur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991y.72-b.

Masalan, kiyim-kechakka doir misollar keltiriladi. Insonning turfa xil kiyinishlari o'sha davr kishilarining xilma-xil qiyofalarida yurganligini bildirarmoqda. "Salla, do'ppi" kabi bosh kiyimlar shular jumlasidandir. "Ipak to'nlar tikilgani" o'sha zamonda ham ipak ishlatilganiga, xirqa kiyilgani esa darveshlarga xos xirqa mavjudligiga dalolatdir: *Sallai chilpech o'rarsan naf izzati bila...*

"Devoni hikmat"da turli xil yegulik-ichguliklar xususida ham ma'lumotlar uchraydi. Sharob ichilgani, kabob yoyilgani, non bilan bir qatorda ko'zaning tilga olinishi, o'sha davrda mazkur narsalarning iste'mol qilinganligini va Markaziy Osiyodagi mavjud qadimiy madaniyatning bir namunasini ko'rsatmoqda. Chunki hikmatlardagi har bir misrada tilga olingan biror bir ashyo nomidan o'sha davrning ijtimoiy hayotiga oid ma'lumot olishimiz mumkin. Masalan, "*Dehqon ermas ketmon chopib non yemasa*" misrasi o'sha davrda dehqonchilikning mavjudligini ko'rsatadi.

"*Ruhlarining g'izosidur changu rubob*" misrasi o'sha davrlar chang va rubob kabi asboblarning ishlatilganligini dalillaydi. Raqs-u samo'ning keng tarqalgani esa mavlaviylik bilan Yassaviylik munosabati yuzasidan e'tiborlidir.

Qaysi bir manba va muallifning asarida bo'lganidek, zamonasi va davr kishilari, ularning yashash tarzlari, ba'zi o'rinsiz hatta-harakatlaridan Yassaviy tariqatiga mansub kishilar ham shikoyat qilganlar. Shu bilan bir qatorda dunyoga ortiqcha mayl etmaslik ham ilgari surilgan. Ayni vaqtda jamiyatdagi turli tabaqa va sinf vakillarining oralaridagi ziddiyatlarga ishora qilinadi hamda insonlarning axloqiy noqisligi tanqid etiladi.

Hikmatlar yaratilgan davrlarda insonlarning turli kiyim-kechak kiyganliklari, yegulik va ichgulik, ba'zi oshxona anjomlari va yurish vositalari tilga olinadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlaridan o'rin olgan to'rtliklar Yassaviya darveshlarining ta'lim-tarbiyasiga xizmat qiluvchi asos bo'lib ko'rinsa-da,

ular o'sha davrdagi insonlarning hayot tarzlari haqida ma'lumot beradi. Shu nuqtayi nazardan hikmatlar o'rganilsa, jamiyat tuzilishiga doir muhim fikr-mulohazalarga duch kelinadi. Tarqoq bo'lsa-da, jamiyatning eng kichik qismi bo'lgan oila masalasi ko'zga tashlanadi. Yassaviylikda bola-chaqa uchun tashvish tortib, mashaqqat chekkanlar Oллоh nazdida maqbul kishilar o'laroq qabul qilinadilar.

“Devoni hikmat”da Yassaviy jamiyat musulmon va nomusulmon toifalarga ajratilgan bo'lsa ham, ular orasida jar mavjudligiga doir biror ishora yo'q.

Olloh degan bandani joyin jannatda ko'rdim,
Huru g'ulmon jumlasin qarshu xizmatda ko'rdim.
Tuni-kuni uxlamay hu zikrini aytqanlar,
Maloyiklar hamrohi arshni ustida ko'rdum.¹

Yuqoridagi parchadan Ahmad Yassaviy yashagan muhitda olim-u so'fiylar bilan bir qatorda haqiqiy oshiqlar ham hayot kechirganliklari oydinlashadi. Shuningdek, voizlar toifasi haqida ham gapiriladi. Chin olimlarning qadr-qimmatini hamisha yuksak bo'lishiga ishonch hosil etiladi.

Yassaviylik bir tariqat sifatida tarqalgani bois uning a'zolariga Yassaviy darveshlari deyilgan. Shu sababdan “Devoni hikmat”da Yassaviydan tortib, bu sulukni ixtiyor etganlarga qadar quyidagicha tavsif etilganlar: *yo'l ustida o'tirgan darveshlar, qo'llarida aso, ustlarida xirqa bilan kezganlar. Tillarida “Olloh” nomini zikr etarlar. Xushodob va doim ko'zlari yoshli, ranglari sariq va so'lg'in yuzlidirlar. Bu sarig'lik nafs tarbiyasiga e'tibor berganliklari tufaylidir.* Ularning “darveshlar suhbatida”da tarbiyalanganligi quyidagi misralarda bayon etilmoqda:

Har kim suhbatga keldi, erandan ulush oldi,
Bot keldi, bilish bo'ldi, darveshlar suhbatinda.

¹Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: G'ur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991y.224-b.

Har kim suhbatga keldi, ko‘ngliga ma’no to‘ldi,
Ashoblar murod topdi darveshlar suhbatinda.

Omi kelsa xos bo‘lur, yulduz kelsa oy bo‘lur,
Mis kelsa oltun bo‘lur, darveshlar suhbatinda.

Kibru hasadlar o‘lar, ichiga ma’no to‘lar,
Ko‘z ochib Haqni ko‘rar, darveshlar suhbatinda.

Yassaviylikda xuddi ana shunday sifatlarga ega bo‘lgan darveshlar ulug‘lanadi. Mazkur hikmatda ifoda etilganiga ko‘ra, Yassaviylar yashagan hududlarda ibratli sifatlarga ega bo‘lgan insonlar hayot kechirishgan. Yassaviy o‘zi haqida so‘zlarkan, cho‘llarda kezganini, tog‘larga chiqqanini, nodonlardan qochganini bayon etadi. Shuningdek, tariqatga mansublikni da’vo qilgan, lekin suluk talablariga rioya qilmaydigan va g‘ayriinsoniy illatlarga ega kishilarni tanqid qiluvchi hikmatlar borligini ham uchratamiz. Hatto jamiyatda soxta shayx va botini zohiriga muvofiq kelmaydigan darveshlar mavjudligining tilga olinishi, hikmatlarning o‘sha davr ijtimoiy tuzilishini aks ettirganligi jihatidan ham muhimdir. Bular orasida manmanlik illatiga chalingan shayxlar, haqiqiy darveshning toat-ibodatini yashirin bajarishi, shu bilan bir qatorda riyokorlik qilgan soxta darveshlar xususida so‘z yuritilishi diqqatga sazovordir:

Darveshman deb toat qilur xalq ichinda,
Riyo qilib yugirib yurar anda-munda,
Olloh uchun toat qilg‘on darvesh qanda,
Chin darveshlar tog‘u cho‘lni makon qilur.

“Devoni hikmat”da boshqa toifaga mansub kishilar masalan, hunarmandlar, g‘avvoslar, askarlar, tujjorlar haqida ham so‘z yuritiladi.

Ijtimoiy jamiyat hayoti va kundalik turmush tarzi haqidagi har xil misollar majoz va o‘xshatishlar orqali yoki insonlarni tarbiyalash maqsadida

ochiq tasvirlangan. Johil kishilarning jaholati qoralanib, ilm-u ma'rifat majlislari, darveshlarning hikmatli suhbatlari madh etiladi. Bunday irfoniy yig'inlar vositasida ma'naviy kamolga erishish uchun zikr halqalarida bardavom bo'lish tashviq etiladi. Ruhiy komillikka eltuvchi ma'rifiy majlislardan ayollarning ham bahramand bo'lishlari kerakligi va hakoza ma'lumotlar o'sha davr ijtimoiy, ma'naviy hayotidan voqif bo'lishimizga yordam berishi shubhasiz.

II BOB. AHMAD YASSAVIY-TASAVVUF ADABIYOTI VAKILI

II. 1. AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA KOMIL INSON

MASALASI

Ahmad Yassaviy diniy-tasavvufiy adabiyot vakili. Biz Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shoir yashagan ijtimoiy va adabiy muhitni nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur. Chunki biz istaymizmi, istamaymizmi Yassaviy Ollohga sodiq, islom diniga e`tiqodi baland bo`lgan. Shoirning hikmatlari Yassaviya madaniyatining tashakkuli (shakllanishi) va haqiqatlari haqida ma`lumot beruvchi bir asardir. Shu bois uni Turkistondn Onado`liga, hatto, Bolqon yarim oroliga qadar keng yoyilgan turkiy zaminning ma`naviy asoslardan biri sifatida qabul etish mumkin. Hikmatlar nafaqat madaniyatimiz tarixi, balki tafakkur dunyomiz uchun bir nur manbaidir. Shoir hikmatlarining tub mohiyatida komil inson tarbiyasi va uning bilim hamda amalini to`g`ri yo`lga yo`naltirish ustivordir.

Yassaviy va izdoshlarining insonga berilgan qadr-qimmatni anglay bilmoq uchun inson haqidagi fikr-qarashlarini ham chuqur mushohada qilmoq lozim. Aks holda na hikmatlarning sir-asrorlarini o`zlashtirish mumkin, na yassaviylikka doir ma`lumotlardan to`la voqif bo`lish mumkin.

Ishq da`vosin manga qilma, yolg`on oshiq,
Oshiq bo`lsang bag`ring ichra ko`z qoni yo`q.
Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,
Zoye kechar umri oni, yolg`oni yo`q.

Yassaviyning bu hikmatlarida inson xilqati yaratilishi haqida so`z yuritilganidek, insonga berilgan ne`mat va ustun sifatlar sanalib ular to`g`risda o`ylashga da`vat qilinadi.

Yassaviy tariqatida insonning asli suv va tuproq ekani e`tirof etilgan. Buni "Asling bilsang obu gil, yana gilga ketaro..." hikmatidan ham bilish mumkin.

Bu misralar bilan go‘yo Qur‘oni karimdagi “uldur ul zotiki,yaratibdur sizlarni tuproqdin, keyin mayin qatrasidin, keyin uyigan qondin, keyin chiqarur sizlarni (onalar qornidin) bola qilib ...”, “Va tahqiq, yaratduk biz insonni loyning xulosasidin. Keyin biz ani bir qatra suv qilib ishonchli bir yerg‘a qo‘yub qo‘yduk. Keyin biz ul qatrani uyug‘on qon qilduk, keyin ul uyug‘on qonni bir chaynam go‘sht qilduk, keyin ul bir chaynam go‘shtni suyaklarg‘a aylantirduk, keyin ul suyaklarg‘a go‘sht kiygizduk, keyin ani biz boshqacha maxluq qilib qo‘yduk” oyatlarini sharhlayotgandek.

Ahmad Yassaviy hikmatlaridan o‘rin olgan to‘rtliklar Yassaviya darveshlarining ta‘lim-tarbiyasiga xizmat qiluvchi asos bo‘lib ko‘rinsa-da, ular o‘sha davrdagi insonlarning hayot tarzlari haqida ma‘lumot beradi. Shu nuqtayi nazardan hikmatlar o‘rganilsa, jamiyat tuzilishiga doir muhim fikr-mulohazalarga duch kelinadi. Tarqoq bo‘lsa-da, jamiyatning eng kichik qismi bo‘lgan oila masalasi ko‘zga tashlanadi. Yassaviylikda bola-chaqa uchun tashvish tortib, mashaqqat chekkanlar Olloh nazdida maqbul kishilar o‘laroq qabul qilinadilar.

“Devoni hikmat”da Yassaviy jamiyat musulmon va nomusulmon toyifalarga ajratilgan bo‘lsa ham, ular orasida jar mavjudligiga doir biror ishora yo‘q.

Diniy-tasavvufiy adabiyot vakillari,mutasavvuf shoirlar, jumladan, Ahmad Yassaviy uchun ham hikmat laduniy mohiyatga egadir. Forobiyning ta‘kidlashicha, hikmat beshigi faylasuflarning ongi emas, payg‘ambarlarning ko‘nglidadir. Qur‘onning “Baqara” surasida bunday deyilgan: “U, ya‘ni fazli karami keng Olloh o‘zi istagan kishilarga hikmat beradi. Kimga hikmat berilgan bo‘lsa, muhaqqahki, unga ko‘p yaxshilik berilibdi”¹. Luqmon surasining 12-oyatida, “Aniqki, biz Luqmonga hikmat ato etdik”² deyilgan. Shu ma‘noda ko‘p mutasavvuflarga Luqmoni hakim o‘rnak bo‘lgandir. Yunus Emroning: “O‘qib hikmat ilmini Luqmon o‘layin bir zamon”, deyishi

¹Qur‘oni Karim.2/269. T.: 2002, 45-b.

²Qur‘oni Karim. 31/12. T.: 2002, 44-b.

shunchaki orzu bo‘lmagan, albatta. Ahmad Yassaviyda ham hikmat – “ilmi laduniy”, ya’ni ilmi g‘aybi haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf etmoq va ifodalamoq mazmuniga teng.

Shoirda hikmat aytish istagi ilohiy-ruhiy ehtiyoj sifatida juda yoshligidan paydo bo‘lgan deyish mumkin. Lekin boshqa bir o‘rinda:

O‘ttiz to‘rtida olim bo‘lib, dono bo‘ldim,

Hikmat ayt deb subhon aydi, go‘yo bo‘ldim,

deydiki, uning “ichi-toshi haq nuriga” to‘lgan ayni o‘sha vaqtlarda ilohiy ma’no va tuyg‘ular hikmatga aylanganligi ehtimoldan xoli emas.

Turkiy adabiyot tasavvuf yo‘nalishida komillik yo‘lida boshidan kechirgan ruhiy-ma’naviy hodisalarni tarjimayi hol tarzida ifoda etish holatlarini ham uchratish mumkin. Masalan, Imom G‘azzoliy “Al-Munqiz” asarida xuddi ana shunda ruhiy o‘zgarishlarni go‘zal bir yo‘sinda bayon etgan. Uning yaqin maqomiga ko‘tarilishdagi izlanishlari, taqlid noqisligidan qutulish uchun intilishlari ulug‘ bir insoniy zafardir. Ahmad Yassaviy ham “Devoni hikmat”ida o‘z ruhiy-tarixini tarjimayi hol tarzida bayon etgan va yilma-yil yuzaga kelgan ruhiy tajribalarni juz’iy unsurlarigacha ko‘z o‘ngimizda namoyon etgan.

Yoshim yetdi oltmish uchqa bir kuncha yo‘q,

Vo darig`o, haqni topmay ko‘nglim sinuq,

Yer ustida sultonmen deb bo‘ldum ulug` ,

Shokir bo‘lib yer ostig`a kirdim mano.

Shayxman debon da`vo qilib uo‘lg`a qoldim,

Dashu dastor puchak pulg`a sotib keldim.

Nafsu havo tug`yon qildi, horib qoldim,

Bedam bo‘lib yer ostig`a kirdim mano.¹

Hazrat Muhammad nazdida jangu-jadaldan ham kuchliroq bir kurash hisoblangan nafsga qarshi mujodalani bolaligidayoq boshlagan Yassaviy

¹Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: G‘ur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1991y.78-b.

uchun tuproqsifatlik axloqiy kamolotga erishuv yo‘llaridan biri edi. Zero, tuproq insonning doyasidir. Inson hayotining davom etishi ham u bilan bog‘liq. Shunga qaramay tuproq inson oyoqlari ostidadir.

Mustaqillik davri tasavvuf ilmining tadqiqotchilaridan adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul ta’kidlaganidek, ushbu misra Yassaviyga juda ko‘p malomatlar yog‘dirilishga sabab bo‘lgan. Misralarda shoir xuddi shu obrazli ifodalari bilan go‘yoki, “xalqning qo‘l-oyog‘ini zolimlar oldida kishanlab qo‘yishni maqsad qilib” olgan emish. Yuzaki qaralganda, bunday ta’nalarda jon borday, albatta. “Darhaqiqat, odam nechun “tog” bo‘lmasdan, “tuproq”qa aylanishi kerak? U “olam”ning oyog‘i ostida yanchilish uchun tug‘ilmaydi-ku! Bu – hozirgi o‘quvchining nuqtayi-nazari. U satr mazmunini taxminan shunday angelaydi va baholaydi. Negaki, u tuproq so‘zini o‘sha joyda yo o‘z ma’nosida yoki o‘lib xokka qorishish mazmunida tushunadi”¹.

Masalaga shu nuqtayi nazardan yondoshadigan bo‘lsak, ozarbayjon olimi Komil Valiyevnig “So‘zning sehri” nomli kitobidagi mana bu fikrlarga diqqatni tortishni xohlardik. “Injil” va “Qur’on” Fuzuliy san’atining ichindadir. “Injil” insonning zaifligi, “Qur’on” insonning qudrati ustida yaratilgan. “Injil”da inson kuchsiz, ko‘mak va shavqatga muhtoj, har qanday zulmga chidamlidir. “Qur’on” esa insonni imperiya uchun safarbar qiladi, insonni kuchli va yanada kuchli bo‘lmog‘ini targ‘ib etadi...Kuchsizlik va kuchning dini Fuzuliy she’rining botinidadir.

Yuqoridagi qaydlarni Yassaviyga ham tadbiiq qilish mumkin. Yassaviy san’atining bag‘rida ham “kuchsizlik va kuch dini” yashiringan. Unda “Injil” ham “Qur’on” ham bor. Shoir ijodiyotida “Qur’on”dan o‘tgan g‘oya va obrazlar sezilarli mavqega ega. Lekin ular qanday shakllarda

¹ Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy / Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1990 35-bet.

vaqaysi maqsadlarda o‘zlashtirganini aniqlash zarur. Mana o‘shanda haqiqat ravshanlashib, chin mohiyat yuzaga chiqadi.

Yassaviy *“Tufroq bo‘lg‘il...”* deganda katta maqsadni e‘tiborda tutgan. Ma‘lumki, diniy tasavvurlar bo‘yicha Xudo dastlab to‘rt unurni bunyod etgan. Bular: o‘t, suv, yer, shamol. So‘ng odam yaralgan. Bu haqida Abulg‘ozixonning *“Shajarai tarokima”* asarida o‘qiymiz: *“...Xudoyi taolo farishtalarga aytadikim, tufroqdin kishi yasab jon berib, yer yuzinda o‘z o‘rnimg‘a xalifa qilib qo‘yatururman...”* Bu hukmga farishtalar, insonlar o‘z nafslarini zabt eta olmaydilar, deb e‘tiroz qiladilar. Shunda Xudo aytganmish: *“Men bilg‘onni sizlar bilmassizlar. Boringlar, tufroqdin bir kishining suvratini yasang... Azroil alayhissalom Xudoning amri bilan borib barcha yer yuzindagi har turlik tufroqdin olib Makkai muazzama birla Toifning orasinda tufroqni balchiq qilib odamning suvratini yasab yotquzdilar”*. Odam shamol yordamida harakatga solinib, olov bilan jasadi isitilganda qalbi haroratga to‘libdi. Va Yaratganning shafqat-u saxovati tufayli vujudi ichida inson o‘z yerini topibdi. Tasavvuf falsafasiga binoan, ushbu to‘rt unurning har biridan to‘rt xususiyat, to‘rt holat, to‘rt mayl va to‘rt sifat yuzaga keltirilganmish.

1. Tuproqdan – sabr, umid, ezgu xulq va muruvvat.
2. Suvdan – quvonch, saxovat, nazokat, birlik.
3. Shamoldan – yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik.
4. Olovdan – nafs, kibr, ta‘ma, hasad.

Bundan tashqari, tasavvufda tuproq – Ollohning munavvar nuri, suv – uning yorug‘ hayoti, havo – buyukligi, olov – uning g‘azabi timsoli. Tuproq va suv – jannat mulki, shamol va olov – do‘zax ichidagi narsalar. Ushbu sharh va ma‘lumotlarni yodda tutib, *“Tufrog‘ bo‘lg‘il, olam seni bosib o‘tsin”* satriga yana nazar tashlaymiz. Tasavvurda albatta nimalardir o‘zgaradi. Chunki *“tufroq”* birinchidan, oddiy so‘zmas, poetik obraz ekan. Ikkinchidan, shoir diniy ishonchlarga asoslanib, insonni ezgu xulq sohibi, muruvvatli va

ilohiy zot sharafiga erishishga chaqirgan. Yassaviydagi “tufrog‘” obrazi xuddi shu ma’no va mantiqlarda Navoiy she’rlarida ham tadbiq qilingan.

Bu qadar manzilatu qurbi buyuk poya bila,

O‘zini tutquvchi tufrog‘ ila hamvor qani?

Tufrog‘ ila o‘zini teng tutish nima ekan? Buyuklik zamini-xokisorlik poyasi. Kibr-manmanlikdan poklanish. Insoniylik martabasi oldida bo‘lak martabalarni nazarga ilmaslik. Navoiyning boshqa bir g‘azalidagi e’tiroficha, “Bevafolar o‘t, vafo ahli erur tufroq...”. misrasidagi “o‘t” va “tufroq” so‘zlarining ikkalasi ham poetik obraz. Shuning uchun – o‘t obrazi orqali bevafolikning tug‘diradigan shaytoniy va nafsoniy hirslar to‘g‘risida o‘ylash kerak. Vafo ahli nega “tufroq” ekanligi endi ayon, albatta. Ko‘ramizki, Yassaviyning “Tufrog‘ bo‘lg‘il” deyishining bir sababi Navoiyda izohlangan, ya’ni bunday:

Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang, tufroq bo‘l,

Kim erur mardud, ulkim boshida kindori bor.

Mardud – rad etilgan. Bunga sabab – shaytoniy kekkayish. Demak, o‘zlikni anglash, “o‘zni maqbul” istashning zo‘r chorasi tufroqsifatlikdir.

Biz Yassaviydagi “tufroq” obrazining mundarijasini hali to‘liq talqin etganimizcha yo‘q. Unda diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ma’no qatlamlari ham bor. Masalaga kengroq qarab, savol qo‘yaylik: tufroq nima? Tufroq – Vatan. Tufroq necha yuz yillardan buyon ne-ne ulug‘ farzandlarini quchog‘iga bosib kelayotgan zamin. Shuning uchun biz uni e’zozlab ona tufroq deymiz. U olis ajdodlarga onalik qilgan. U otabobolarimizning onasi bo‘lgan. U bizning onamiz. Va kelajak nasllarning onasi bo‘lajak. Otashnafas turk shoiri Oshiq Vaysal deydi:

Havoga boqsam men havo olarman,

Tufroqqa boqsam men duo olarman.

Tufroqdan ayrilsam, qayda qolarman,

Mening sodiq yorim qaro tufroqdir.

Ha, Haqning “nixon xazinasi” tufroqda. Tufroq “duo”si – vatan duosi. Chingiz Aytmatov yaratgan To‘lg‘onoy momoning ona zamin bilan hasratlashganlarini xotirlasak. U bir joyda “Umr o‘tib borayotir, ona-Yerim, oradan tag‘in bir yil o‘tdi. Bugun mening sig‘inadigan kunim”, - deydi. Yerga sig‘inmoq odamiylik matlabi. Ona-zaminiga sig‘ingan kishining “*Mening sodiq yorim qaro tufroqdir*” deyishi, ishq nurlarini Vatan tufrog‘iga bag‘ishlashi shubhasizdir.

Ahmad Yassaviy ta‘limotiga ko‘ra axloqiy kamolotga erishgan oshiq “mol-udavlatga rag‘bat qilmaydigan”, g‘aflatdan yiroq ogoh kishidir. Zotan, ma‘nan uyg‘oq insonga Alloh yaqin bo‘lur. Bunday insonlarning “ko‘ngli siniq, ko‘zi yoshli”dir. Ko‘z yoshi to‘kish “Devoni hikmat” da qayta-qayta takrorlanadigan hatto Yassaviya darveshlaridan kamolotga erishish yo‘lida talab etiladigan holatdir. Asl ishqqa faqat shu yo‘l bilan erishiladi.

Shoir ta‘limotiga ko‘ra, insonning yaratilish g‘oyasi Yaratuvchiga qul bo‘lish va buning mohiyatini anglab toat-ibodat qilishdir. Shuningdek, yemoq, ichmoq va dam olmoq ham insonning tabiiy haqlaridir. Ammo insonning haqiqiy inson sifatida bajaradigan ishlari faqatgina bulardan iborat emas. Komil inson bo‘lish uchun Allohni tanish, yod etish va uni sevish zarur. Mana shu ishq yo‘lida tuproq kabi bo‘lishni orzu qilgan Yassaviy “ishqsizlarning yo‘lda qolganini ko‘rdim” deydi. Ilohiy ishqni kuylagan Yassaviy hikmatlari faqatgina o‘z davrining diniy va e‘tiqodiy tushunchasini bayon etmay, ayni vaqtda insonning atrofida qilargalarga va boshqa borliqlarga ham bir xil nazar bilan qarashni talqin etadi.

Yassaviy “Va taom berurlar Xudo muhabbatida muhtoj turg‘on mising‘a va yetimg‘a va asirg‘a” mazmunidagi oyatni dalil keltirib, asirlarga ham shavqat-muruvvat ko‘rsatish lozimligini yoqlaydi.

Yassaviy hikmatlarida ko‘p qo‘llangan so‘zlardan biri “g‘arib” dir. Hikmatlarda “g‘arib” so‘zi ko‘pincha “faqir”, “yetim” so‘zlari bilan yonma-yon keladi va ayni bir ma‘noni ifodalaydi.

Darhaqiqat, hazrati Muhammad tugʻilishidan oldin uning otasi vafot etgan edi. Olti yoshda onasi hayotdan koʻz yumdi. Yetim qolgan nabirasiga bobosi Abdulmuttalib qaradi. Ikki yildan keyin bobosi ham vafot etib, kichik Muhammadni amakisi Abu Tolib oʻz himoyasiga oldi. Abdulmuttalib vafoti chogʻida nabirasini omonat qoldirish uchun katta oʻgʻillaridan Abu Lahabga bunday deydi: “Sening mol-mulking bor, obroʻ-eʻtiborga egasan. Lekin koʻngling qattiq, shavqatsizroqsan. Bola esa yetim, koʻngli siniq. Sening qattiq muomalang uni iztirobga soladi”.

Yetim oʻsgan hazrati Muhammad ham oʻz hayotida Qurʻon oyatlariga asoslanib yetimlarni himoya qilishga doir koʻplab hukmlar keltirilgan. Chunonchi, Yassaviy sheʼrlarida Paygʻambar alayhissalom “gʻarib bilan yetimga muruvvatli Muhammad” va “yetim, faqir, gʻaribga sahovatli Muhammad” tarzida tavsif etiladi. Hatto Alloh rasulining tilidan yetimlarning xos ummat ekani bayon etiladi:

Muhammad aydilar: har kim yetimdur,

Bilingiz u meni xos ummatimdir.

Yassaviy ham hazrati Paygʻambar kabi yoshligida yetim qoldi. Dastlab Arslonbobning, keyinroq Yusuf Hamadoniyning himoyalariga kiradi. Paygʻambar hayotiga oʻxshashlik xoh manqabalarda aks etgan boʻlsin, xos tarixiy haqiqat boʻlsin, Yassaviylikda yetim va gʻarib inson timsoliga ancha keng eʻtibor beriladi.

“Devoni hikmat”da oʻsha davr uchun ham, hozirgi zamon uchun ham dolzarb hisoblangan komil inson mavzusi alohida oʻrinni egallagan. Yaratuvchi insonni boshqa jonzotlardan ongi, fikrlashi bilan farqlagan. Shu bois inson faqatgina oʻz oldida emas, balki oʻzga mavjudotlar qarshisida ham masʼuldir. Buni ilohiy bir qoida sifatida qabul qilgan Yassaviy va uning izdoshlari boshqalar bilan boʻlgan munosabatlarda, ularning qaysi din va eʻtiqodga mansub boʻlishiga qaramasdan, kamtarlik va oʻta nazokat bilan muomala qilishni oʻzlarining burchi deb bilganlar. Ushbu tushunchani eʻtirof etgan

holda tuproq kabi hokisor va yumshoq ko'ngilli bo'lishini ilgari surganlar. Bu esa insonning yaxshi tarbiyalanishiga, aniqrog'i Yassaviya ma'rifat maktabi ta'lim-tarbiyasini olishiga bog'liqdir. Buning uchun inson hech qanday qiyinchilikdan qochmasligi kerak. Yaxshi ta'lim-tarbiya olish yo'lida g'ayrat ko'rsatib, zarur bo'lsa g'urbatda kezib, ham nazariy, ham amaliy tajribasini orttirib, ruhini yuksaltirishi zarur. Ana shundagina faqat o'zi uchun emas, balki atrofidagilarga ham xizmat qilib to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

Komil inson tushunchasi Yassaviy ta'limotida ma'naviy kamolotga erishish va axloqan yuksalishni maqsad qilib qo'ygan komil insondir. Bugun ham faqatgina moddiy hayotlarini boyitish uchun harakat qilgan va yolg'iz o'zini o'ylab atrofdagilarga loqayd qaraydigan xudbin kishilar Yassaviy tarbiyasiga albatta muhtojdirlar.

Biz bugungi kunda komil inson tushunchasini bugungi kun hayot tarzidan, bugungi kun yoshlarini qiziqtirgan masalalardan uzoqlashmagan holda talqin etishimiz kerak. Buning uchun Yassaviy tariqati, ularda ilgari surilgan komil inson tushunchalarining ahamiyati juda katta.

II.2. AHMAD YASSAVIY HIKMATLARI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar orasida yangi bir tasavvufiy tariqat yaratgan va tasavvuf she'riyatiga asos solgan mashhur mutasavvuf ijodkordir.

Ahmad Yassaviy she'rlarini o'z ichiga olgan majmua "Devoni hikmat" deb ataldi. "Devoni hikmat" islom dini asoslaridan bahs etuvchi, shariatning ahkomi va ahli sunnatning aqidalaridan saboq beruvchi, tasavvuf sirlari va tariqatning odob-u arkoni yoritilgan qomusiy xarakterdagi bir asar. Unda ilohiy ishq g'oyasi va didikatik mazmun yo'nilishi yetakchilik qiladi. Abdurauf Fitratning aytishicha, Yassaviyning "adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'llaridir... uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti deb atalgan she'rlar bilan barobar" yurgan.

Yassaviy "turk shoirlarining dohiylaridan", deb ta'riflagan Abdurahmon Sa'diy yozadi: "Yassaviy turk qavmlarining haqiqiy ma'nosi bilan chin shoirlaridan (lirik) va klassik shoirlaridandir. Ul g'oyat hassos, ilhom va xayoli g'oyat tabiiy va yengil o'qishli bir shoirdir. Yassaviyning yuragi butun umriga ruhiy va ma'naviy ishq lovullab yonaturg'on she'riy bir o'tdir"¹.

Turk olimi M.F.Kuprulizodaning Ahmad Yassaviy shoirlik faoliyatiga nazari va munosabati nisbatan boshqacha. Unga ko'ra, Yassaviy arab va fors tillaridagi tasavvufiy asarlarni o'qiy olmaydigan turklarga ma'rifat tarqatish va muridlariga tasavvufiy haqiqatlarni talqin etish maqsadida she'r yozgandir.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning ta'kidlashicha, "Fors-tojik tasavvuf she'riyatini yangi va yuksak bosqichga ko'targan Sanoiy, Fariduddin Attor, jaloliddin Rumi singari mutasavvuf shoirlarning ijod namunalari bilan

¹Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. T.: 2001. 13-bet.

qiyoslaganda, albatta, “Devoni hikmat”dagi lirik tamoyilda o‘zgacha ma’no kasb etadi”².

Ahmad Yassaviy birinchi bo‘lib hikmatnavislik an‘anasini boshlab bergan ijodkor. Yassaviy hikmatlarining bosh fazilati va xosiyati shundaki, ular, eng avvalo, she‘rxonni Birlik kuchiga ishontiradi, ilohiy Birlik shavqi bilan ko‘ngulni poklaydi. Yassaviy hikmatlarini o‘qigan kishi go‘zal axloq va yaxshi amal, yuksak orzu muhibiga aylanadi, asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘tkinchi dunyo da‘volaridan yiroqlashib, ma’no va mohiyatga yuz buradi. Chunki Ahmad Yassaviy ko‘zlagan bosh maqsad orifona maqsad bo‘lgan. Shuning uchun u o‘z ijod namunalariga hikmat nomini bergan.

Ahmad Yassaviyni asosan, bizgacha hikmatlari yetib kelgan. Diniy-tasavvufiymanzumalar X asrdan e‘tiboran “Hikmat” deb atalganini M.F.Kuprulizoda alohida ta‘kidlab o‘tadi. Mutasavvuf shoirlar, jumladan, Ahmad Yassaviy uchun ham hikmat laduniy mohiyatga egadir. Forobiyning ta‘kidlashicha, hikmat beshigi faylasuflarning ongi emas, payg‘ambarlarning ko‘nglidadir. ya‘ni ilmi g‘aybi haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf etmoq va ifodalamoq mazmuniga teng. “Adabiyotshunos olimlarimizning ta‘kidlashicha, “Yassaviyning o‘zi “Devoni hikmat” nomi bilan bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yassaviyga aloqasi yo‘q degan da‘voni ilgari surishga asos bermaydi”¹.

“Devoni hikmat” kitobi hanuzgachatarifat, ma‘rifat, haqiqat sirlari yoritgan. Unda ilohiy ishq va oshiqlik, ma‘rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta‘sirli ohanglarda yoritib berilgan.

Ahmad Yassaviy islom dinining yetuk allomasi, shariat ahkomlarining targ‘ibotchisidir. Zero, u o‘z hikmatlari vositasida turkiy millatlarni

¹Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. T.: 2001. 14-bet.

²Ibrohim Haqqul. Yassaviy va yassaviyshunoslik: natija va bahslar/ ijod iqlimi. T.: 2009y. 111 –b.

musulmonlikka da'vat qilishni ko'zlagan. Yassaviy nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun turkiy xalqlarning islom ma'rifatini egallashlari uchun beqiyos hissa qo'shgan maslak sohibidir. Ahmad Yassaviy yassaviylik nomi bilan turkiy xalqlar orasida ilk marotaba yangi tariqatga asos solgan mashhur shayxdir. Uning tariqati – yo'nalish e'tibori bilan turkiy tasavvuf yo'li edi. Ahmad Yassaviy o'zbek tasavvuf she'riyatini boshlab bergan mutasavvuf shoirdir. Yassaviy hikmatlari xalqchil, sodda, ravon va yod olinishi qulay she'rlar bo'lib, asrlar mobaynida turkiy xalqlarning ma'naviy-ma'rifiy kamol topishida muhim o'rin tutib kelganligi shubhasizdir. Bu jihatdan, yirik yassaviyshunos olim F.Kuprulizoda "Devoni hikmat"ni xalq og'zaki ijodi bilan diniy-tasavvufi ruhni hamohang ifodalagan ilk asar hamda turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimiy va eng muhim obidasi ekanini e'tirof etadi.

Yassaviydan keyin ham uning hikmatnavislik an'anasi yaqin kunlargacha davom etib kelindi. "Devoni hikmat"ning turli yillarda ko'chirilgan va chop etilgan nusxalarida hikmatlarga naziralar bitib qoldirgan Qul Sulaymon ota, Ne'matulloh, Xolis, Qul Ubaydiy, Darvesh Ali, Qul Naziriy, Shamsiy kabi adiblar yassaviya hikmat maktabining ilg'or vakillaridir.

Yassaviydan keyin "Nasabnoma", "Risola dar tarjimai Ahmad Yassaviy", "Mir'otul qulub", "Hadiqat ul-orifin", "Hujjatul abror", "Javohir ul-abror", "Lamahot", "Silsilai nisbati mashoyixit-turk" kabi bir qator qadimiy asarlarda uning hayoti, ijodi, tariqati hamda ma'rifiy-irfoniy fikr-qarashlariga o'rin ajartilgan.

Ahmad Yassaviy ijodi tahqirlangan sho'ro zamonlarida xalqimiz nazaridan chetda qolmaganligining sababi ham mana shunda. O'sha zamonlardagi ta'qib va cheklashlarga qaramasdan fanning yassaviyshunoslik degan bir tarmog'i yuzaga kelgan edi, desak xato bo'lmaydi. Chunki bu sohada olimlar tomonidan e'tiborli ishlar bajarilgan.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin Ahmad Yassaviyning hayoti, tariqati va she'riyatiga doir bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning turkiy she'riyat taraqqiyotidagi xizmatlari hali to'la ko'rsatib berilganicha yo'q. Bu faqat o'zbek olimlari tomonidan hal qilinadigan ish bo'lmasdan, uni turkiy tilli xalqlarning olimlari hamkorlikda amalga oshirmoqlari lozim.

Ahmad Yassaviy ijodi, uning ijodida muhim o'rin egallagan diniy-tasavvufiy adabiyot o'rganilmagan deya olmaymiz. Chunki shoir ijodi, uning "Devoni hikmat"i haqida ma'lumotga egamiz, tadqiqotchilar tomonidan ozmi, ko'pmi o'rganilgan. Ammo biz shoir ijodini tom ma'noda o'rganishga istiqbol yillarida erishdik. Shoir hikmatlarida ilgari surilgan omil inson g'oyalari bugungi kunda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

X U L O S A

Mustaqillik davrida diniy-tasavvufiy adabiyotga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy, Huvaydo, Haziniy, Xilvatiy, Muhyi singari shoirlarning tasavvufiy ruhdagi asarlari nashr etildi. Ahmad Yassaviyning ijodini keng miqyosda o'rganish bitiruv malakaviy ishiimiz markazida ekan, bizgacha mavjud bo'lgan yagona manba "Devoni hikmat"dan katta-katta ilmiy ishlar, doktorlik dissertatsiyalari, to'plamlar va monografiyalar yozish mumkin. Yassaviy ba'zan mutasavvuf, ba'zan din allomasi, ba'zan shoir, ba'zan donishmand sifatida namoyon bo'ladi. Bularning yagona va o'zgarmas asosi uning ma'rifat targ'ibotchisi ekanligidir. Yassaviy insonni tarbiyalash va mukammal bir holga yuksaltirish uchun bilim va shu bilan bog'liq bir qancha vazifalarni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Yassaviy o'z fikr-qarashlarini xalq ommasiga asosan, she'riy shaklda hikmatlari orqali yetkazdi. Bu og'zaki she'rlarni o'zidan keyin muridlari nasldan naslga yetkazib keldilar. Yassaviyning bugunga qadar yetib kelgan asari "Hikmatlar" majmuasidir. Bu kitobning bevosita Yassaviy qalamiga mansubligi haqida turli fikr-mulohaza va ehtimollar bor. Chunki Yassaviy yashagan davrda uning sermazmun hikmatlari mukammal "Devoni hikmat" holiga keltirilmagan, bir necha qo'lyozma tarzida ko'paytirilgan, xolos. Lekin qo'lyozma va tosh bosma nusxalar tadqiq etilsa, ularning bir-biridan farqli tomonlari seziladi. Chunki Ahmad Yassaviy tomonidan aytilgan hikmatlarni uning muridlari yozib olganlar. Keyinchalik bu she'rlar to'planib, kitob holiga keltirilgan. Bu asarlar qo'ldan-qo'lga o'tgan, odamlar yod olishgan, Yassaviya darveshlarining yig'inlarida hikmat o'qish yoki yoddan aytish yassaviylik an'anasiga aylangan. Shunday jarayonlar mobaynida hikmat aytuvchilarning o'z so'zlari ham hikmatlar orasiga qo'shib ketgan. Shunday

bo'lsa-da, Yassaviyning hayoti, dunyoqarashi va kashf-u karomatlariga doir ko'plab muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "Devoni hikmat" birlamchi manba sifatida milliy-tarixiy va adabiy qimmatini hech qachon yo'qotmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari o'zbek mumtoz adabiyotimiz tarixida o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki mumtoz adabiyotimiz tarixida tasavvufona ruhda yozilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar sanoqligina.

"Devoni hikmat" asarida ilgari surilgan komil inson, insonning diniga bo'lgan e'tiqodi, nafs tarbiyasi va shunga o'xshash masalalar asarning asosiy g'oyasini tashkil etadi. Buni ilohiy bir qoida sifatida qabul qilgan Ahmad Yassaviy kamtarlik va o'ta nazokat bilan muomala qilishni o'zining burchi deb bilgan. Ushbu tushunchani e'tirof etgan holda tuproq kabi hokisor va yumshoq ko'ngilli bo'lishni ilgari surgan. Bu esa insonning yaxshi tarbiyalanishiga, ta'lim-tarbiya olishiga bog'liqdir. Buning uchun inson hech qanday qiyinchilikdan qochmasligi kerak. Yaxshi ta'lim-tarbiya olish yo'lida g'ayrat ko'rsatib, zarur bo'lsa g'urbatda kezib, ham nazariy, ham amaliy tajribasini orttirib, ruhini yuksaltirishi zarur. Ana shundagina faqat o'zi uchun emas, balki atrofidagilarga ham xizmat qilib to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

Ahmad Yassaviy ijodidagi komil inson ma'naviy kamolotga erishish va axloqan yuksalishni maqsad qilib qo'ygan komil insondir. Bugun ham faqatgina moddiy hayotlarini boyitish uchun harakat qilgan va yolg'iz o'zini o'ylab atrofidagilarga loqayd qaraydigan xudbin kishilar Ahmad Yassaviy tarbiyasiga albatta muhtojdirlar. Yosh avlod Ahmad Yassaviyning komillik g'oyalarini zamonaviy dunyoqarashdan ajratmagan tarzda tushunib yetsalargina ko'zlangan oliy maqsadga erishishlari shak-shubhasizdir.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari tasavvuf adabiyotining noyob namunasi sifatida adabiyotshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Yassaviy insonni tarbiyalash va mukammal bir holga yuksaltirish uchun bilim va shu bilan bog'liq bir qancha vazifalarni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asari orqali o‘z fikr-qarashlarini xalq ommasiga asosan, she‘riy shaklda yetkazdi. Keyinchalik bu kitob holiga keltirilgan. Bu asar qo‘ldan-qo‘lga o‘tgan, odamlar yod olishgan.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida islom ma‘rifatining insonni tarbiyalovchi asoslari talqin qilinadi. Unda shaxsning o‘ziga, atrofdagi insonlarga va Yaratganga nisbatan muomalalari o‘rgatiladi. Islom tarbiyachisi sifatida Yassaviy diniy qonun-qoidalarni va ularga ko‘ra insonning axloqiy jihatdan qanday bo‘lishi kerakligini nasihatlar tarzida xalq ommasiga yetkazgan. Uning so‘zlari ming-minglab o‘quvchilarga kuchli ta‘sir qilgan va asrlar mobaynida ularni ruhlantirib kelgan.

Markaziy Osiyoda islomning quvvat topishi va har tomonlama to‘g‘ri qabul qilinishida “Devoni hikmat” asarining xizmati beqiyosdir. Uning ta‘lim-tarbiyasida asosan, tasavvufga e‘tibor berilishi, islomiy axloqning bashariy harakatlarda o‘rin topishini qulaylashtirgan. Bobur o‘z asari orqali xalq ommasiga oyat va hadislarning mazmunini yengil va sodda tarzda anglatgan. Shuningdek islom farz va ruknlari, ularni har bir musulmon nima maqsadda bilishi zarurligi, ularning ahamiyati yoritilgan. “Devoni hikmat” asarida islom ma‘rifatining insonni tarbiyalovchi asoslari talqin qilinadi. Unda shaxsning o‘ziga, atrofdagi insonlarga va Yaratganga nisbatan muomalalari o‘rgatiladi. Islom tarbiyachisi sifatida Yassaviy diniy qonun-qoidalarni va ularga ko‘ra insonning axloqiy jihatdan qanday bo‘lishi kerakligini she‘riy tarzda xalq ommasiga yetkazgan. Uning so‘zlari ming-minglab o‘quvchilarga kuchli ta‘sir qilgan va asrlar mobaynida ularni ruhlantirib kelgan. Hikmatlarda Yaratganga, shaxsning o‘ziga, atrofdagi insonlarga nisbatan muomalalari o‘rgatiladi. Islom tarbiyachisi sifatida Yassaviy diniy qonun-qoidalarni va ularga ko‘ra insonning axloqiy jihatdan qanday bo‘lishi kerakligini nasihatlar tarzida xalq ommasiga yetkazgan. Uning so‘zlari ming-minglab o‘quvchilarga kuchli ta‘sir qilgan va asrlar mobaynida ularni ruhlantirib kelgan.

Ahmad Yassaviy ta'lim-tarbiyasiga asosan, tasavvufga e'tibor berilishi, islomiy axloqning bashariy harakatlarda o'rin topishini qulaylashtirgan. Yassaviy o'z hikmatlari orqali xalq ommasiga oyat va hadislarning mazmunini yengil va sodda tarzda anglatgan. Shoir ijodida shaxsning o'ziga, atrofdagi insonlarga va Yaratganga nisbatan muomalalari o'rgatiladi. Islom tarbiyachisi sifatida Ahmad Yassaviy diniy qonun-qoidalarini va ularga ko'ra insonning axloqiy jihatdan qanday bo'lishi kerakligini nasihatlar tarzida xalq ommasiga yetkazgan. Uning so'zlari ming-minglab o'quvchilarga kuchli ta'sir qilgan va asrlar mobaynida ularni ruhlantirib kelgan. Yassaviy hikmatlarini o'qigan kishi go'zal axloq va yaxshi amal, yuksak orzu muhibiga aylanadi, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'tkinchi dunyo da'volaridan yiroqlashib, ma'no va mohiyatga yuz buradi. Chunki Ahmad Yassaviy ko'zlagan bosh maqsad orifona maqsad bo'lgan. Shuning uchun u o'z ijod namunalariga hikmat nomini bergan. Yassaviy o'z hikmatlarida ijtimoiy hayotdagi turli tabaqa vakillari xususida so'z yuritar ekan, ularning komillik yo'lidagi harakatlarini ham baholab o'tadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda komil inson tushunchasi dolzarblik kasb etayotgan bir paytda Ahmad Yassaviy hikmatlarining tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. “Barkamol avlod orzusi”, Toshkent-2000 yil.
2. Karimov I. “O‘zbekiston XX asr bo‘lag‘asida”. Toshkent, “O‘zbekiston” 1997-yil.
3. Karimov I. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”. Toshkent. “O‘zbekiston”-1995-yil.
4. Karimov I. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” Toshkent-“O‘zbekiston”. 1995-yil.
5. Karimov. I.A. Asarlar. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent, 1996. 336 bet.
6. Karimov Navoiy .MAT. 3-tom. Toshkent, 1989. 560 bet.
7. Karimov Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 1993. 278 bet.
8. Karimov Navoiy. MAT. 17-tom. Toshkent, 2001. 488 bet.
9. Karimov E. Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi // O‘zbek tili va Adabiyoti. Toshkent, 1972. 4-5 sonlar.
10. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1990. 256 bet.
11. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent, 1991. 268 bet.
12. Xoja Ahmad Yassaviy Devoni hikmat. (Yangi topilgan namunalar). Toshkent, 2005. 188 bet.
13. Xoja Ahmad Yassaviy: hayoti, ijodi va an‘analari. Toshkent, 2001.336 bet.
14. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she‘riyat. Toshkent, 1991.184 b.
15. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.
16. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. Toshkent, 2001. 64 bet.
17. Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur. Toshkent, 2007. 228 bet.

18. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2008. 224 bet.
19. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. Toshkent, 2009. 388 bet.
20. Hasan Komil Yilmaz. Turkiyada yassaviyshunoslik. Toshkent, 1999. 68 bet.
21. Hayot vasfi. Toshkent, 1988. 704 bet.
22. Karomatov Hamidulla. Qur'on va o'zbek adabiyoti. Toshkent, 1993. 96 bet
23. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. 2-kitob. Toshkent, 1999.
24. Nodirxon Hasan. Tadqiq va tahlil ehtiyoji // O'zbek tili va adabiyoti. 2002, 3-son.
25. Valiyev K. So'zning sehri. Toshkent, 1998. 264 bet.
26. Qur'oni Karim. Toshkent, 2001. 619 bet.

**Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
talabasi Axmedova Shaxlo Istamovnaning
“Tasavvufiy adabiyot va uning vakillari
ijodiyotiga bo‘lgan munosabat” (Ahmad
Yassaviy misolida) mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

X U L O S A S I

Mustaqillik sharofati bilan biz keng kitobxonlar nazaridan chetda bo‘lib kelgan So‘fi Olloyor, Sulaymon Boqir`oniy, Huvaydo, Haziniy, Xilvatiy, Muhyi singari shoirlarning ijodi bilan bir qatorda Ahmad Yassaviyning ham diniy ruhdagi merosini nashr etish, qayta o‘rganish kabi xayrli ishlarni amalga oshirishga erishdik.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi “Tasavvufiy adabiyot va uning vakillari ijodiyotiga bo‘lgan munosabat” (Ahmad Yassaviy misolida) deb nomlangan bo‘lib, bu jarayonda Yassaviy ijodida inson va ijtimoiy hayot masalasini o‘rganish, inson va ijtimoiy hayotga daxldor bo‘lgan qarashlar aks etgan. Ahmad Yassaviy ijodidagi diniy-tasavvufiy adabiyot namunalarini, hikmatlarini tahlil qilish, ularning shoir badiiy niyatini ifoda etishdagi o‘rni va rolini belgilash kabi muammolarni ochib berishga yo‘naltirilgan. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishinig birinchi bobi “Milliy istiqlol davrida ijod erkinligi” deb nomlangan. Unda mustaqillik davrida tasavvufona adabiyotning o‘rganilishi ochib berilgan. Turkiy til go‘zal, qudratli, ta’sirchan va bag‘ri keng til ekanligi, qadim zamonlarda bu tilda buddaviylik, moniy diniga doir matnlar sharhlanganligi, bu tilda boshqa dinlarning haqiqatlarini ifodalovchi she’rlar yozilganligini talaba o‘z ishida yoritib bergan.

Bitiruv malakaviy ishinig ikkinchi bobi “Ahmad Yassaviy-tasavvuf adabiyoti vakili” deb nomlangan. Bu bobda Ahmad Yassaviy

hikmatlarida komil inson masalasi, Yassaviy hikmatlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Komil inson tushunchasi Yassaviy ta`limotida ma`naviy kamolotga erishish va axloqan yuksalishni maqsad qilib qo`ygan komil inson ekanligini, bugun ham moddiy hayotlarini boyitish uchun harakat qilgan va yolg`iz o`zini o`ylab atrofdagilarga loqayd qaraydigan kishilar Yassaviy tarbiyasiga va ta`limotiga tayanishlari lozimligi ta`kidlangan.

Talaba Axmedova Shaxlo Istamovna bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritib berishga harakat qilgan. Yassaviy tariqati, ularda ilgari surilgan komil inson tushunchalarining o`ziga xos jihatlarini ochib bergan. Ishning tarkibida ba`zi juziy kamchiliklar mavjud, ammo bu bitiruv malakaviy ishining saviyasiga putur yetkazmaydi. Shuni inobatga olib, ishni tugallangan deb hisoblayman va Davlat attestatsiyasi komisiyasi himoyasiga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

f.f.n. D.Rajabova